

جدید

Tilda, fikrda, ishda birlik!

2024-yil
22-mart
№ 13(13)

adabiy, ilmiy-ma'rifiy va ijtimoiy haftalik gazeta

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI SHAVKAT MIRZIYOYEVNING NAVRO'Z UMUMXALQ BAYRAMIGA BAG'ISHLANGAN TANTANALI MAROSIMDAGI NUTQI



Assalomu alaykum, aziz va muhtaram vatandoshlar!

Uzoq-yaqindan tashrif buyurgan hurmatli mehmonlar!

Siz, qadrdonlarimni, ko'pmillatli butun O'zbekiston xalqini barchamiz sog'inib kutgan Navro'zi olam bilan samimiy muborakbod etishdan baxtiyorman.

Bugun fasllar almashib, yer-u ko'kda ilohiy mo'jizalar yuz bermoqda. Yangi kun, yangi mavsum, yangi hayot nafasi boshlanmoqda. Tabiat uyg'onishi bilan zimiston kechalardan zerikkan ko'ngillar yasharib-yayramoqda.

Albatta, bugungi shodiyona bayramni el-yurtimiz bilan muazzam

"Yangi O'zbekiston bog'i"da o'tkazishni niyat qilgan edik. Lekin hamamiz ko'rib turibmiz – so'nggi kunlarda havo sovib, harorat biroz pasayib qoldi. Bugun obi rahmat yomg'irlari bilan osmondan rizqu ro'z, qut-baraka yog'moqda. Hamamiz bu holatni shukronalik bilan qabul qilamiz.

Mana shu muhtasham saroyda turib, barcha-barchangizga eng ezgu va samimiy tilaklarimni izhor etishga ijozat bergaysiz.

Xush kelibsan yurtimizga, go'zal Navro'z!

Olam sen bilan nurga to'lsin!
Sharqona Yangi yil hammamizga muborak bo'lsin!

Qadri do'stlar!

Mana shu quvonchli kunlarda ona zaminimiz, jonajon O'zbekistonimiz bamisoli ulkan va muhtasham bir sayilgohga aylanmoqda. Farg'ona vodiysi-yu Surxon va Qashqadaryo tog'larida, Xorazm va Qoraqalpog' diyorida, Samarqand-u Buxoro, Navoiyning go'zal bog'larida, Jizzax-u Sirdaryo kengliklarida, Toshkent vohasining yam-yashil adirlarida, azim poytaxtimiz maydonlarida el-yurtimiz sayil-tomoshalar o'tkazib, Navro'zni shod-u xurramlik bilan kutib olmoqda.

Navro'zi olam falsafasi bizning orzu-intilishlarimiz, amaliy ishlarimiz bilan uzviy bog'lanib ketganini bugun har qadamda yaqqol ko'rish mumkin. "Yangi hayot uchun, Yangi O'zbekiston uchun!" degan ezgu g'oya atrofida birlashgan xalqimizning olib borilgan mehnati bilan mamlakatimizda yangi-yangi zamonaviy korxonalar, shinam uy-joylar, ijtimoiy va madaniy obyektlar, yo'l va ko'priklar, bog' va xiyobonlar barpo etilmoqda. Yurtimiz qiyofasi kundun kunga obod va go'zal bo'lib bormoqda.

Inson qadrini ulug'lash, uning hayotiy manfaatlari va ijtimoiy himoyasini ta'minlash, ehtiyojmand aholi qatlamlarini qo'llab-quvvatlash, millati, tili va dinidan qat'i nazar, har bir yurtdoshimizga mehr va e'tibor ko'rsatish faoliyatimiz mezoniga aylanmoqda.

Mamlakatimizdagi do'stlik va hamjihatlik muhiti, yaxshi qo'shnichilik, tinchliksevar tashqi siyosat tufayli xalqaro maydonda O'zbekistonimizning obro'-e'tibori yuksalmoqda.

Navro'zi olamning insonparvarlik, tinchlik va bag'rikenglik kabi qadriyatlariga uyg'un va hamohang bunday ishlarimizni biz kelgusida yanada kengaytiramiz.

Muhtaram yurtdoshlar!
Navro'zi olam bizni butun borliqni, avvalambor, yer va suv, hayvonot va o'simlik dunyosini, sof havoni asrab-avaylab, ona tabiatga mehribon farzand bo'lib yashashga da'vat etadi.

Ana shunday ezgu chorlovga javoban bugungi kunda yurtimizda ulkan ishlar amalga oshirilmoqda, Navro'z hasharlari o'tkazilmoqda. Jumladan, "Yashil makon" loyihasi doirasida millionlab mevali va manzarali ko'chatlar ekilmoqda, yangi bog'-u rog'lar barpo etilmoqda.

Qadimiy qo'shiqlarimizda Navro'z xazinalar ochiladigan baraka ay-yomi, deb tarannum etiladi.

Mana, bugun mirishkor dehqon va fermerlarimiz, bog'bon va chorva-

dorlarimiz yangi mehnat mavsumini boshlamoqda.

Ilohim, bobodehqonlarimizning omadini, baxtini bersin!

Daryolarimiz suvga to'lib, hosilimiz mo'l bo'lsin!

Aziz do'stlar!

Yoshlik – inson umrining bahori, uning Navro'z bayramidir. Yoshlik – odamzod kamolot osmonida yulduzdek charaqlaydigan bebaho davrdir.

Yangi O'zbekiston farzandlari – yuzlab, minglab o'g'il-qizlarimiz turli sohalaridagi yutuqlari bilan bu fikrni amalda isbotlamoqdalar. Ularning kuch-g'ayrati, ezgu harakatlariga qanot berish maqsadida biz joriy yilni mamlakatimizda "Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yili" deb e'lon qildik.

Chunki doimo izlanish, tashabbus va yangilikka, o'zligini namoyon etishga intilish yoshlik va tadbirkorlikka xos fazilatlar hisoblanadi.

Bu haqda gapirganda, bir fikrga alohida urg'u berishni istardim. Tadbirkorlik, ishbarmonlik azaldan xalqimizning qonida, ong-u tafakkurida yashab kelmoqda. El-yurtimiz qadim zamonlardayoq qo'li gul usta va hunarmandlari, mirishkor dehqonlari, yetti iqlimni kezgan savdogarlari, noyob mahsulotlari va noz-ne'matlari bilan butun dunyoga dong taratgan.

(Davomi 2-sahifada).

HAR KUNIMIZ NAVRO'ZDEK GO'ZAL, NAVRO'ZDEK FAYZLI VA MAZMUNLI BO'LSIN

21-mart kuni poytaxtimizdagi "Humo Arena" majmuasida Navro'z bayrami tantanalari bo'lib o'tdi.

Adirlarda, baxmal qirlarda bahor shukhi kezi bilan uning ortidan inson ruhiyatini va qalbini jo'sh urdrib, Navro'zi olam kirib keldi. Bu yilgi yasharish fasli – bahor ham ma'rifatli jamiyat qurishdek ulug' maqsadlarga hamohang bo'lmoqda.


Ko'ngillar xayrli amallardan bahra olayotgan har bir kunda inson qalbi bayramona zavqdan yashnaydi. Shunga hamohang mamlakatimiz bo'ylab Navro'z bilan bog'liq an'analar namoyishi, milliy madaniy markazlar ko'rgazmalari o'tkazilmoqda.

Tantana ishtirokchilari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevni qarsaklar bilan kutib oldi.

Davlatimiz rahbari barchani Navro'z bayrami bilan tabrikhladi.

– Siz, qadrdonlarimni, ko'pmillatli butun O'zbekiston xalqini barchamiz sog'inib kutgan Navro'zi olam bilan samimiy muborakbod etishdan baxtiyorman, – dedi Prezident.

Davlatimiz rahbari shunday markazlarining ko'rgazmalari va kuy-qo'shiqlarini ham tomosha qildi. Turli millat vakillari bilan samimiy suhbatlashib, ezgu tilaklarini bildirdi. Navro'z sayillari Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlar markazlarida, tuman, qishloq va ovullarda davom etmoqda.



Mamlakatimizdagi do'stlik va hamjihatlik muhiti, yaxshi qo'shnichilik, tinchliksevar tashqi siyosat tufayli xalqaro maydonda O'zbekistonimizning obro'-e'tibori yuksalmoqda.

Tabiatning yasharish ayyomi bo'lgan Navro'z yoshlik bilan ham uyg'un. Mamlakatimiz yoshlarining kuch-g'ayrati, ezgu harakatlariga qanot berish maqsadida bu yil "Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yili" deb e'lon qilindi. Bunga oid Davlat dasturidagi maqsadlarga 36,5 trillion so'm va 460 million dollar maablag' yo'naltirilishi belgilangan. Umuman, joriy yilda barcha turdagi tadbirkorlik dasturlari doirasida 2 millionga yaqin aholiga moliyaviy ko'mak ko'rsatiladi.

Prezident yoshlarimizning xalqaro fan olimpiadalari, madaniyat va san'at festivallari, axborot texnologiyalari va sport yo'nalishlaridagi yutuqlarini qayd etib, keyingi ishlari va musobaqalarda muvaffaqiyat tiladi.

Navro'zning o'lmas ruhi, ayniqsa, mahallalar hayotida yaqqol namoyon.

Mahallani qo'llab-quvvatlash kengashlari, O'zbekiston mahallalari uyushmasi va uning hududiy tuzilmalari tashkil etildi. Joylarda "mahalla yetiligi" tizimi samarali faoliyat olib bormoqda.

Manzilli ishlar natijasida so'nggi ikki yilda O'zbekistonda kambag'allik darajasi 17 foizdan 11 foizga tushdi. Bunda 900 mingga yaqin aholiga imtiyozli kredit, 200 mingdan ziyod fuqarolarga subsidiya, qariyb 700 ming gektar yer ajratib berilgani muhim ahamiyatga ega bo'ldi.

Bu yildan boshlab Sirdaryo viloyatining Sayxunobod tumanida yangi tajriba joriy etilmoqda. Uning asosiy mazmuni – tomorqa yerlaridan unumli foydalanish, tomorqa egalari zarur vosita va resurslar bilan ta'minlash, ular yetishtirgan mahsulotga bozor

topib berish uchun ko'maklashish, har qaysi oila va mahallada kichik-kichik ishlab chiqarishlarni yo'lga qo'yish, servis va xizmat turlarini ko'paytirishdir.

Shavkat Mirziyoyev mamlakatimiz bo'yicha 510 ming gektar tomorqa yerlari borligi, bu hali to'la ishga solinmagan ulkan imkoniyat ekanini ta'kidladi. Bu borada faol insonlar davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishi, jumladan, tomorqada yetishtiriladigan mahsulotlarni sotib oluvchi, qayta ishlovchi va eksport qiluvchi tadbirkorlarga 300 million so'mdan 1 milliard so'mgacha grant berilishi aytib o'tildi.

– Mahallani qo'llab-quvvatlash, uni yanada rivojlantirish doimo e'tiborimiz markazida bo'ladi. Chunki, mahalla – bu mehr va ahilik qo'rg'onidir. Mahalla – oqko'ngil, bunyodkor xalqimiz qalbining ko'zgusidir, – dedi Shavkat Mirziyoyev.

Bayram tadbirida xorijiy davlatlarning elchilari, xalqaro tashkilotlar vakillari ham

ishtirok etdi. Prezidentimiz ularni 21-mart – Xalqaro Navro'z kuni bilan muborakbod etib, xalqlariga qizg'in salom va tabriklarini yo'lladi.

Bu yilgi Navro'z bayrami fazilatli Ramazon oyida bo'lib o'tayotgani uning fayz-u tarovatini yanada ziyoda qilmoqda.

– Mana shu bahoriy lahzalarda barchamiz ulug' ajdodlarimizning tilaklariga qo'shilib, ilohim, har kunimiz Navro'zdek go'zal, Navro'zdek fayzli va mazmunli bo'lsin, deb niyat qilamiz, – deya so'zini yakunladi Prezident.

Bayram shodiyonasi katta konsert dasturi bilan davom etdi.

Tantananadan so'ng, Prezident Shavkat Mirziyoyev Navro'z saykida bo'lib, milliy madaniy markazlari, folklor-etnografik jamoalar chiqishlarini kuzatdi.

– Bu san'at, bu urf-odatlarimiz tarixiy. Ularning zahirida katta madaniyat, ma'rifat bor. Bu yo'nalishni mahkam tutib, davom ettirayotganimiz uchun rahmat. Bayram milliy qadriyatlarimiz bilan fayzli, – dedi Shavkat Mirziyoyev.

Ko'pmillatli xalqimizning to'yi, bayramlari bir bo'lib ketgan. Navro'z ham barcha millat va elat vakillarining sevimli bayramiga aylangan. Bugun yurtimizda 130 dan ortiq millat va elat vakillari tinch-totuv yashab, uning ravnaqiga munosib hissa qo'shmoqda. Hududlarda 38 ta do'stlik jamiyati va 153 ta milliy madaniy markaz faoliyat ko'rsatmoqda.

Davlatimiz rahbari shunday markazlarining ko'rgazmalari va kuy-qo'shiqlarini ham tomosha qildi. Turli millat vakillari bilan samimiy suhbatlashib, ezgu tilaklarini bildirdi.

Navro'z sayillari Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlar markazlarida, tuman, qishloq va ovullarda davom etmoqda.

Ziyodulla JONIBEKOV,

O'zA muxbiri



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI SHAVKAT MIRZIYOYEVNING NAVRO‘Z UMUMXALQ BAYRAMIGA BAG‘ISHLANGAN TANTANALI MAROSIMDAGI NUTQI

Boshlanishi 1-sahifada.

Bugungi kunda O‘zbekistonda yangi tadbirkorlar avlodi ana shu an‘anani munosib davom ettirib, dadil maydonga chiqmoqda. Eng muhimi, biznes sohasi nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy hayotimizda ham hal qiluvchi kuchga aylanmoqda.

Biz ishbillarmonlik muhiti rivoji uchun yanada keng imkoniyatlar yaratib beramiz. Joriy yilda qabul qilingan davlat dasturidagi maqsadlarga 36,5 trillion so‘m va 460 million dollar mablag‘ yo‘naltirish belgilangani ham bu fikrni tasdiqlaydi.

Oilaviy tadbirkorlik va o‘zini o‘zi band qilish dasturlari doirasida 50 mingdan ziyod yurtdoshlarimizga Biznesni rivojlantirish banki orqali zarur moliyaviy va moddiy yordam ko‘rsatiladi. Jumladan, ularga garov talabisiz 100 million so‘mlik imtiyozli kreditlar ajratiladi. Bundan tashqari, o‘rta biznes vakillariga 1,5 milliard so‘mgacha bo‘lgan imtiyozli kreditlar 7 yil muddatga beriladi. Umuman, joriy yilda barcha turdagi tadbirkorlik dasturlari doirasida 2 millionga yaqin aholiga moliyaviy ko‘mak ko‘rsatiladi.

Muxtasar aytganda, Yangi O‘zbekistonni tadbirkorlik va biznes uchun eng qulay va jozibador mamlakatlardan biriga aylantirish yo‘lida yangi amaliy qadam qo‘yamiz.

Bugungi kunda yurtimiz yoshlari xalqaro fan olimpiadalarida, madaniyat va san‘at, IT va sport yo‘nalishlaridagi nufuzli tanlov va festivallarda faol ishtirok etib, g‘olib va sovrindor bo‘lib kelayotganlari barchamizni quvontiradi.

Birgina misol. Navqiron sportchilarimiz o‘tgan yili Osiyo o‘yinlarida 22 ta oltin, 18 ta kumush, 31 ta bronza medalini qo‘lga kiritib, O‘zbekistonning ushbu musobaqalardagi re-

kordini yangiladilar.

Xabaringiz bor, yaqinda mashhur shaxmat grossmeysteri – Nodirbek Abdusattorov Praga xalqaro turnirida muddatidan oldin g‘alaba qozonib, jahondagi eng kuchli to‘rtta shaxmat-chining biriga aylandi.

Kelinglar, shu ulug‘ ayyom kunda barchamiz astoydil niyat qilaylik: Nodirbekka tez kunlarda Vatanimizga jahon shaxmat tojini olib kelish nasib etsin! Sen bunga albatta qodirsan, Nodirbek o‘g‘lim! Butun el-yurtimiz sendan shu buyuk g‘alabani kutmoqda.

Eng quvonarlisi, bunday yuksak marralarni zabt etishda qizlarimiz ham o‘g‘lonlarimizdan qolishmayapti. Xususan, iste‘dodli qizimiz Zaynab Dayibekova qilichbozlik bo‘yicha Peruda bo‘lib o‘tgan jahon kubogi o‘yinlarida O‘zbekiston sporti tarixida birinchi marta bronza medalini qo‘lga kiritdi.

Yana bir mahoratli qizimiz Shahina Yigitaliyeva esa Paraosiyo o‘yinlarida nayza otish bo‘yicha oltin medalga sazovor bo‘lib, mazkur musobaqalar rekordini yangiladi.

Aziz sportchi farzandlarim, sizlarni oldinda g‘oyat muhim va ulkan sinov – Parij Olimpiadasi va Paralimpiya o‘yinlari kutmoqda. Jahonning eng zo‘r sportchilari bellashadigan ana shu musobaqalarda O‘zbekiston bayrog‘ini baland ko‘tarib, yurtimizga qo‘sha-qo‘sha medallar, yutuq va sovrinlar olib kelasiz, deb ishonaman.

Barchangizga g‘alaba yor bo‘lsin!

Hurmatli bayram ishtirokchilari!

Navro‘zning o‘lmas ruhi ayniqsa mahallalarimiz hayotida yaqqol namoyon bo‘lmoqda.

Barchangiz guvohsiz, keyingi ikki-uch oyda bu sohada qanday katta o‘zgarishlar yuz berdi! Mahallani qo‘llab-quvvatlash kengashlari, O‘zbekiston mahallalari uyushmasi va uning

hududiy tuzilmalari tashkil etildi. Hamma soha va yo‘nalishlar bo‘yicha “mahalla yettilligi” tizimi samarali faoliyat olib bormoqda.

Albatta, bu tizimni tashkil etganimiz, shu boradagi tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligi va daromadini oshirish, kambag‘al-likni qisqartirishga qaratilgan dasturlarimiz zamirida katta hayotiy ma‘no bor.

Ana shu ishlarimizni kuchaytirish maqsadida Sirdaryo viloyatining Sayxunobod tumanida yangi tajriba joriy etilmoqda.

Bu borada ayniqsa tomorqa yerlaridan unumli foydalanish, tomorqa egalarini zarur vosita va resurslar bilan ta‘minlash, ular yetishtirgan mahsulotga bozor topib berish uchun ko‘maklashish, har qaysi oila va mahallada kichik-kichik ishlab chiqarishlarni yo‘lga qo‘yish, servis va xizmat turlarini ko‘paytirish asosiy maqsadimizga aylanmoqda.

O‘zingiz tasavvur qiling, hozirgi vaqtda mamlakatimiz bo‘yicha besh yarim millionta xonadonda 510 ming gektar – e‘tibor bering – 510 ming gektar tomorqa yerlari bor. Bu – hali to‘la ishga solinmagan ulkan imkoniyat, katta boylikdirl.

Barchamizga ayonki, O‘zbekiston sharoitida ana shunday imkoniyatlardan foydalanib, astoydil mehnat qilgan odam hech qachon kam bo‘lmaydi.

Mana, so‘nggi ikki yilda O‘zbekistonda kambag‘allik darajasini 17 foizdan 11 foizga tushirishga erishdik. Albatta, bu natijalar o‘z-o‘zidan bo‘layotgani yo‘q. Shu davrda 900 mingga yaqin aholiga qariyb 20 trillion so‘m imtiyozli kredit, 200 mingdan ziyod fuqarolarga 1,5 trillion so‘m subsidiya, qariyb 700 ming oilaga esa dehqonchilik uchun 200 ming gektar yer ajratib berilgani bu borada muhim ahamiyatga ega bo‘ldi.

Eng asosiysi, tadbirkorlik, jumladan, tomorqadagi mehnat, odamni, ayniqsa, yoshlarni jismoniy va ma‘naviy tarbiyalaydi, ularni o‘z kuchi va imkoniyatiga ishonib yashashga o‘rgatadi.

Ta‘kidlab aytmoqchiman: davlatimiz bunday faol insonlarni doimo qo‘llab-quvvatlaydi.

Masalan, xonadonlardagi tomorqada yetishtiriladigan mahsulotlarni sotib oluvchi, qayta ishlovchi, shu mahsulotlarni eksport qiluvchi tadbirkorlarga 300 million so‘mdan 1 milliard so‘mgacha grant beriladi. Bundan tashqari, bo‘sh yerlarda sanoatbop daraxtlar o‘stirish, chorvachilik, baliqchilik, parrandachilik, asalarichilik uchun qo‘shimcha imkoniyatlar yaratiladi.

Bu chora-tadbirlarni amalga oshirish uchun mamlakatimiz iqtisodiyot kompleksining barcha rahbar va xodimlari mahalla darajasiga tushib, ishni tashkil etishga mas‘ul va javobgar bo‘ladi.

Ro‘zayi ramazon kunlarida yaxshi niyat bilan Sayxunobdda boshlangan tajriba butun yurtimiz bo‘ylab keng tarqaladi, deb ishonaman.

Albatta, bu oson ish emas. Lekin, qanchalik qiyin bo‘lmasin, o‘z kasbining ustasi va fidoyisi bo‘lgan xalqimiz, tog‘ni ursa talqon qiladigan azamat yoshlarimiz bilan barchamiz birgalikda bu vazifani amalga oshirishga qodirimiz.

Tabiiyki, bu borada fuqarolik jamiyatining noyob namunasi bo‘lgan mahalla yetakchi o‘rin tutadi.

Shu bois mahallani qo‘llab-quvvatlash, uni yanada rivojlantirish doimo e‘tiborimiz markazida bo‘ladi. Chunki, mahalla – bu mehr va ahillik qo‘rg‘onidir. Mahalla – oqko‘ngil, bunyodkor xalqimiz qalbining ko‘zguvidir.

Fursatdan foydalanib, 22-mart kuni mamlakatimizda nishonlanadigan Mahalla tizimi

xodimlari kuni bilan barcha yurtdoshlarimizni, jonkuyar va fidoyi mahalla faollarini chin yurakdan tabriklab, ularning ishlariga muvaffaqiyat tilaymiz.

Qadrla do‘stlar!

Dunyodagi vaziyat tobora murakkab va tahlikali tus olayotgan hozirgi kunda Navro‘z Yer yuzida turli xalqlar va millatlar o‘rtasida tinchlik va hamkorlikni mustahkamlashdek ezgu maqsadga xizmat qilmoqda.

Bugungi davramizda O‘zbekistonda faoliyat ko‘rsatayotgan diplomatik korpus namoyandalarni ko‘rib turganimdan g‘oyat mamnunman. Fursatdan foydalanib, xorijiy davlatlarning muhtaram elchilarini, xalqaro tashkilotlar vakillarini samimiy qutlab, ularning mamlakatlari va xalqlarini 21-mart – Xalqaro Navro‘z kuni bilan muborakbod etib, barchalariga qizg‘in salom va tabriklarimizni yo‘llaymiz.

Bu yilgi Navro‘z bayrami fazilatli Ramazon oyida bo‘lib o‘tayotgani uning fayz-u tarovatini yanada ziyoda qilmoqda.

Ushbu muborak ayyomda mamlakatimiz mo‘min-musulmonlarini, butun islom ummatini yana bir bor qutlab, ularning chin dildan qilayotgan duolari ijobat bo‘lishini Parvardigori olamdan so‘raymiz.

Aziz va muhtaram vatandoshlarim!

Mana shu bahoriy lahzalarda barchamiz ulug‘ ajdodlarimizning tilaklariga qo‘shilib, ilohim, har kunimiz Navro‘zdek go‘zal, Navro‘zdek fayzli va mazmunli bo‘lsin, deb niyat qilamiz.

Barchangizga sihat-salamatlik, yangi yutuq va zafarlar, oilaviy baxt va farovonlik tilayman. Yurtimiz tinch, xalqimiz omon bo‘lsin!

Navro‘zi olam barchamizga muborak bo‘lsin!

AZALIY DO‘STLIK

– *Hurmatli elchi janoblari, avvalo, sizni va siz orqali butun Eron xalqini qadimiy va umumiy bayramimiz – Navro‘z ayyomi bilan tabriklaymiz. Xalqingizga shodiyona kunlar davomiyligini tilagan holda, keling, suhbatimizni Navro‘z haqidagi mulohazalar bilan boshlasak. Siz bu bayramning o‘ziga xosligini nima-da deb bilasiz?*

– Navro‘zning ilk davri bundan uch ming yil ilgari borib bog‘lanadi. O‘sha davrlarda Yaqin va O‘rta Sharq, shuningdek, Markaziy Osiyo mintaqalarida turli xalqlar va elatlar birgalikda ahil, inoq yashaganlar. Ular garchi boshqa-boshqa din va e‘tiqodlarga amal qilsalar-da, mehr-oqibat rish-talari mustahkam bo‘lgan. Mana shu ahillikning ildizlarini udumlar, urf-odatlar va qadriyatlarda ko‘rish mumkin. Inchunkin, Navro‘z bayramida ham. Bu bayram xuddi hozirgi kunlarimizdagi kabi ularni yana bir karra bir-birlariga bog‘lovchi mustahkam rishta vazifasini o‘tagan.

Navro‘zning o‘ziga xosligi shundaki, uni nishonlash bilan bog‘liq voqeiklarda mavjud bo‘lgan umum-bashariy g‘oyalar zamirida insoniyat uchun muhim masalalar turadi. Misol uchun, Navro‘z kunlarining avvalida bir-birlari bilan arazlashib qolganlar bayram bahonasida yarashadi, o‘zaro kelishmovchiliklarga barham beriladi. Natijada esa, o‘z-o‘zidan insoniyatga suv va havodək zarur bo‘lgan tinchlik va barqarorlik o‘rnatiladi. Yoki yoshi ulug‘larga hurmat, ijtimoiy ko‘makka muhtoj qatlarga e‘tibor ko‘rsatish bilan jamiyatda mehr-oqibat tuyg‘ularini rivojlantirishga erishiladi. Keyingi bosqichda aynan Navro‘z kunlari umummilliy hasharlar uyushtirilishi, ariqlar tozalanib, daraxtlarning oqalanishi orqali atrof-muhit tozaligi hamda tabiatni asrashdek global vazifa amalga oshirilishi bilan birga, birdamlik va hamjihatlik targ‘ib qilinadi.

Navro‘zning yana bir o‘ziga xos xususiyati borki, bu – yangilanish. Sizning gazetangiz “yangi”, “yangilanish” ma‘nosida “Jadid” deb nomlangani kabi bu qutlug‘ ayyomning nishonlanishida tafakkur va



tuyg‘ularning yangilanishiga aniқ ishoralar beriladi. Ya‘ni, masalan, qish-qirovli kunlardan keyingi zerikishlar o‘rnini navro‘ziy ilqlik va bayramona zavq egallaydi. Shuningdek, tabiatning ohorlanishi barobarida hayotiy eskiliklardan voz kechib, yangi insoniy tamoyillarga o‘tiladi. Bu to‘g‘ridagi fikrlarimizning nihoyasi yo‘q. Bir so‘z bilan aytganda, Navro‘z bu etnik jihatdan yaxshilik va umumbashariy qadriyatlarni targ‘ib qiluvchi bayramdir.

– *Navro‘z boshqa ko‘plab mamlakatlarning ham umumiy bayrami hisoblanadi. Davlatlarimiz va xalqlarimiz o‘rtasidagi umumiylilik-chi? Siz ularni nimalarda ko‘rasiz?*

– To‘g‘ri aytdingiz, Navro‘z aynan bitta xalq yoki bir millatga tegishli emas, bu barchamizning mustarak bayramimiz. Avvalo, ikki xalq o‘rtasida nimaiki yaxshi bo‘lsa, shu narsani qabul qilishdek o‘xshashlik bor. Xususan, biz Navro‘z mintaqasidagi davlatlar G‘arbdan ham, Sharqdan ham faqat yaxshi jihatlarini o‘zlashtirishga harakat qilamiz. Shu bilan birga, azal-azaldan qon-qonimizga singib ketgan ezgulikka intilish, yaxshilikni targ‘ib qilish, do‘stlik va birodarlikka sadoqat, o‘z-o‘zini kattalarga hurmat va kichiklarga izzat ruhida tarbiyalab

borish, oqibatlilik va inson qadrini ulug‘lash kabi bir qancha umumiy o‘xshash tomonlarimiz bor. Shu ma‘noda Navro‘z ham qadimgi zamonlardan to hozirgi kungacha Albaniyadan tortib Xitoygacha va Hindistondan Tataristongacha bo‘lgan katta hududda yaxshi bir bayram sifatida qabul qilingan. Bu ham xalqlarimiz xarakterlaridagi uyg‘unlikning bir namunasi aslida.

– *Elchi janoblari, Navro‘z qadimiy bayram bo‘lishiga qaramay faqat 2009-yilga kelibgina xalqaro bayram sifatida tan olin-di. Bu haqda siz qanday fikrda-siz?*

– Darhaqiqat, Navro‘z o‘n ikkita mamlakat tashabbusi tufayli 2009-yil 30-sentyabr sanasi bilan Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan Xalqaro bayram sifatida e‘tirof etildi. Shu o‘n ikki davlat orasida, albatta, O‘zbekiston va Eron ham bor. Shuningdek, umum-bashariy meros sifatida Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasi hamda YUNESKO qarori bilan Jahon nomoddiy madaniy meros representativ ro‘yxatiga ham olindi. Gap shundaki, bu bayramning ko‘plab xalqlar uchun mustarak meros ekanligini juda kech tushunib yetdik. Navro‘z ma‘naviy va nomoddiy meros sifatida ajdodlarimizdan bizgacha yetib kelgan va bizdan avlodlarimizga qoladigan ulug‘ bayramimizdir. Shu jihatdan uni xalqaro maydonga olib chiqishimizda OAV hamda media chiqishlarimizni kuchaytirishimiz va uning targ‘ibotini mamlakatlar bo‘ylab namoyish etishda faol harakat qilishimiz kerak edi. Ehtimol, bu bizning xalqlarimiz mentalitetidagi andishalilik tufaylidir. Nima bo‘lganda ham, uni umumbashariy bayram sifatida ayon qila olishimiz uchun dunyoning har bir burchagiga tantanalar messejlarini yetkaza bilishimiz kerak, deb o‘ylayman va bu borada harakatlar boshlangan.

Xalqaro bayramlar qatori ro‘yxatiga olinganiga ko‘p vaqt bo‘lmagan esa-da, Navro‘z jahon bo‘ylab keng yoyilmoqda va agar adashmasam, ayni paytda dunyoning 150 ta mamlakatida nishonlanmoqda. Amerikada, xususan, Oq uyda ham Navro‘z dasturxonini tuzalib, AQSH prezidenti uni bayram qiluvchi barcha mamlakatlarni tabriklashi odat tusiga kirdi.

– *Siz bu bayramni qaysi mamlakatlarda nishonlagansiz va taassurotlaringiz qanday?*

– Men qay mamlakatda diplomatik missiyamni bajargan bo‘lsam, u yerda nishonlangan Navro‘z ayyomlari yuqori saviyada o‘tgan. Masalan, Eronning Buyuk Britaniyadagi elchixonasida ishlagan paytimda yoki ayni paytda, O‘zbekistonda bo‘lib o‘tayotgan Navro‘z shodiyonalariga guvoh sifatida aytishim mumkin, boshqa mamlakatlarda ham bu xushbaxtlik kunlarida barcha Navro‘z mintaqasi mamlakatlari do‘stlik munosabatlarini yanada mustahkamlaydilar. Chunki ular bayramni birgalikda nishonlaganlari boisi, yakkalik bilan tayyorgarlik ko‘rishadi. Yaqinda bilganim esa, O‘zbekistonda Navro‘z Erondagi kabi o‘tkazilar ekan. Masalan, Eronda ham, O‘zbekistonda ham bu bayram bir necha kun davom etadi.

– *Eronda bu bayram qay tarzda boshlanib, qanday yakunlanadi?*

– Eronda Navro‘z kunlari har bir uyda “Haft sin” dasturxonini tuzaladi. Unga “sin” (s) harfi bilan boshlanadigan yetti turdagi ne‘mat tortiladi. Bular: sabza (bug‘doy, arpa va yasmiqdan o‘stirilgan maysa), seb (olma), samanu (sumalak), sir (sarimsoq), sanjid (jiyda), sirka yoki sumoq (totim). Ko‘kat – qayta tug‘ilish va endigina dunyoga kelganlik, olma – go‘zallik va sog‘lik, sumalak – qut-baraka, sarimsoq – shiflo, jiyya – muhabbat,

sirka – sabr-bardosh, totim – quyoshning chiqishi ramzi hisoblanadi. Bundan tashqari, “haft sin” dasturxoniga komillik va ziynat bag‘ishlash maqsadida boshqa narsalar ham qo‘yiladi. Jumladan, ko‘zgu, Qur‘on yoki Hofiz Sheroziy devoni, Firdavsiy “Shohnoma”si kabi kitobar, shamdon (ba‘zi joylarda oiladagi farzandlar soniga teng miqdorda shamdonlar), tanga, bo‘yalgan tuxum, gul, shirinliklar, quruq mevalar, qizil baliq solingan suvli kosa kabilarni sanab o‘tish mumkin.

Navro‘z Eronda taomilga ko‘ra, o‘n uch kun davom etadi. Bayramning oxirgi kunini “si dah badar” deb aytishadi, ya‘ni o‘zbekchasiga “tashqariga chiqib ket”, deyiladi. Buning ma‘nosi – shu o‘n uchinchi kuni hamma eronilar tabiat bag‘riga chiqishadi. Tashqarida yomg‘irmi, shamolmi, nima bo‘lsa ham odamlar uyidan yashil kengliklar tomon yo‘l olishadi. Bu kun tabiat kuni deb ham hisoblanadi. Yana Navro‘z kuni hamma yaqinlar yo‘qlanadi. O‘sha o‘n uch kun mobaynida Eronga xorijdan va Erondan xorijga yuzlab aviareys amalga oshiriladi. Bundan tashqari, 870 ming kishi bordi-keldi munosabatlari bilan avtoulavlarda Eronga kiradi yoki chiqadi.

– *O‘zbekistonda sumalak Navro‘z bayramining xos taomi hisoblanadi. Eronda ham bu bayramning alohida taomi bormi?*

– Albatta. Bu maxsus palov bo‘lib, baliq, ko‘kat va guruchdan tayyorlanadi. Buning o‘ziga xos ramziy ma‘nosi bor. Navro‘z eronchasiga “nav – ro‘z” – yangi yilda yangi kunning tug‘ilish kuni deb yuritilgani boisi, bu taomga tavallud va cheksizlik belgisi sifatida baliq tanlangan. Baliq, avvalo, hamisha suvda yashaydigan eng halol jonli maxluqot bo‘lib, minglab-millionlab urug‘dan ko‘payadi. Boshqa jonlilar nari borsak o‘nta yoki yigirma-

ta nasl berishi mumkin. Shuning uchun xursandchilik kunlarimiz baliq urug‘idek behisob bo‘lsin, degan ma‘noda aynan ko‘katli baliq palov pishirish urfga kirgan. Taomga asosan qizil baliq tanlanadi. Chunki qizil baliq yashovchan bo‘lib, bir suvdan boshqasiga solinganada oddiy baliqlar uzog‘i bilan o‘n kungina yashaydigan sharoitda u bir necha oy bemalol yashay oladi. Navro‘zning bu taomi faqat oila davrasidagina tanovul qilinadi, restoran yoki kafelarda pishirilmaydi. Har bir oila a‘zolari uni o‘z oilasi davrasida tanovul qilishi shart.

– *O‘zbekiston xalqiga bayram tilaklaringiz...*

– Dunyodagi xalqlarning birgalikda totuv yashashlari uchun ularni tutashtiruvchi nuqtani topish qiyin. Ammo sizning, bizning ajdodlarimiz necha ming yillar avval shu nuqtani topib, belgilab ketishgan. Albatta, biz ham uni yo‘qotib qo‘ymasligimiz, ya‘ni o‘zaro hamkorlik, do‘stlik va birodarlikni mustahkamlab bormog‘imiz kerak. O‘zbekiston va Eron juda yaxshi do‘stona munosabatlar an‘anasiga ega va bu bizni quvontiradi. Inshaalloh, an‘ana hamisha shunday saqlanib qoladi.

O‘zbekiston xalqini, o‘zbek millatini o‘zimizning birodarlarimiz, deb hisoblaymiz. Biz uchun yurtimiz muhtaram bir mamlakat va o‘zbeklar qadrla bir millatdir. Navro‘z bayrami munosabati bilan O‘zbekiston xalqini ayyom bilan muborakbod etaman va ularga muvaffaqiyat, ezgulik tilayman. Eronchasiga aytganda: “Har ro‘zi shud Navro‘z boshad, har Navro‘zi feruz boshad”. Ya‘ni har kuningiz Navro‘z bo‘lsin, Navro‘zingiz feruz (g‘olib) bo‘lsin!

Muhayyo PIRNAFASOVA suhbatlashdi.



TALQIN

OLAM TAROZISINING SHAYINI



Sharq donishmandligi azal-azaldan yovuzlikdan ezgulik, qorong'ilikdan yorug'lik, yomonlikdan yaxshilik, qattiqdan yumshoq kuchli va sabotli ekani borasida saboq berib keladi. Ko'p yillik mustahkam daraxt keksalikdan darak bersa, endi ko'klayotgan navnihol, yoshlik tantanasi o'laroq, dovul-u bo'ronlarga bardoshli ekani ayni haqiqatdir. Ma'lumki, muvozanatini yo'qotgan har bir narsa zavo'lga yuz tutishga mahkum. Tabiat ham shunga ko'ra o'z mutanosibligini saqlab, borlig'-u olam shayinini to'g'rilagan holda uning manguligini ta'minlab turadi.

Shu kunlarda, kunlar tatti bo'lib, maysa-giyohlarning qiyof tillari toshlarni yorib chiqayotgan kezlarda bunga guvoh bo'lasiz. Endi-endi ko'zlarini uqalab uyg'onayotgan mitti navbahorga esa qanchalik urinib-chiranmasin, zabtiga olmoqchi bo'lmasin, g'azab sochmasin, salobatli qishning kuchi yetmay qoladi. Tabiat mutanosibligi shunga ko'ra borlig'-u olam muvozanatini saqlab turadi – zamin-u ziroatni tark etmog'i lozimligi-yu, bundan o'zga iloj yo'qligini hali anglab-anglamagan qahraton qishning shafqatsiz muzliklari ostidan boychechak bosh ko'taradi. U elchi sifatida sepini yoyishga makon izlayotgan bahor nomidan salobatli qishga jasoratli noma yo'llaydi. Maysa-giyohlarga, o't-o'lanlarga, gul-chechaklarga endi uning hukmi o'tmasligi borasida ogohlantiradi. Uning nomasi mazmuni yozilayotgan yaproqchalarida aks etadi.

*Qis' yay bila toqushi,
Qiyir ko'zun baqishi.
Tutu'sqali yaqishi,
Utgalimat o'gra'sur.*

Aytmoqdaki: Qish yoz bilan to'qnashdi, ular bir-biriga yomon ko'z bilan qarashdi, bir-birini tutish uchun yaqinlashdilar. Ularning har biri yutish va yengishni istar edi [Qish yoz bilan urushdi, bir-birlariga yomon ko'z bilan boqishdi, tutishga yaqinlashishdi. Ular bir-birini yengishga intilishar edi].

Mahmud Koshg'ariy sodda satrilarda ifodalagan tabiatdagi qish va ko'klam munozarasi jamiyat taraqqiyo-tining asoslari haqidagi murakkab qarashlardan ham o'git beradi. Zero, jamiyatda qarama-qarshiliksiz rivojlanish puch hisoblanadi.

Ulug'vor tabiatda har narsaning o'z o'рни va vazifasi bor.

Bir kunda dunyoga kelib o'sha kunioyq zavol topadigan kapalakning "puf" desa uchib ketadigan chiroyli qanotlarida qanchalik kuch-qudrat mujassam? Biz buni bila olmaymiz, ammo tabiat bu par qanotlar silkinishidayoq borlig'-u olamga ogohlikka da'vat etuvchi kufi muja yo'llaydi. "Xaos teoriiyasi"ga asos solgan amerikalik mashhur matematik va meteorolog Edvard Norton Lorenz "kapalak effekti" deb nomlagan tabiatdagi kichik bir harakat kutilmaganda xaos darajasiga olib keluvchi holatga aylanishi mumkinligini hech kim inkor eta olmaydi. "Amazon o'rmonlarida bir kapalakning qanot qoqishi AQShda bo'ron ko'tarilishiga sabab bo'lishi mumkin", – deya uqitradi Edvard Norton Lorenz. – Boshqacha aytganda, bir kapalakning qanot qoqishi dunyoning yarmini aylanib chiqadigan dovulga sabab bo'lishi mumkin".

Yaqindagicha bir tutam bo'lgan kunlar shito'v uzayib, hademay kun-u tun tenglashadi – ertasidan boshlab kun tundan uzaya boshlaydi. Mana shu oraliqda, mana shu mutanosiblikda Sharq xalqlari qadim-qadimdan bayram sifatida nishonlab kelgan Navro'z – Yangi kun bo'y ko'rsatadi.

Navro'z – tabiat mutanosibligi tarozisi shayini to'g'rilangan adolatli kun. U adolat timsoli. U oqni oqqa, qorani qoraga ajratadi. Endi dehqonlar bemalol bostirma ostidan ketmonlarini olishlari, o'roqlarini charxlashlari, omochlarini aravalariga ortib dalaga chiqaverishlari mumkin. Endi qishning sovuq kunlari alday olmaydi, yerga sochilgan urug' nobud bo'lmaydi. "Ey farzand, agar dehqon bo'lsang, barcha dehqondin bilimiroq bo'lg'il va har bir ekinini eksang, vaqtidin o'tkazib ekmag'il. Agar vaqtidin o'n kun burun ekkaning ikki kun vaqtidin so'ng ekkanidan yaxshiroqdur. Hamma vaqt yerni tarbiyat qilg'il, dehqonchilik peshasidin bahramand bo'lgaysan". Dehqonlar yaxshi bilgan bu ilmi XI asrda yashagan Kaykovus "Qobusnoma" asarida sabt etib qo'ygani bejiz emas, u tabiat mutanosibligini anglamoqning mo'jizalari haqida saboq beradi. Dehqon sochgan urug'idan ungan

hosil bani bashar tirikligini ta'minlab turadi. Qushlar, qumursqalar rizqini teradi. Uning o'ziga ham bir chimdim nasib etadi. Bu ulug' mutanosiblikdan tashqaridagi barcha voqea-hodisalar o'tkinchi, gap-so'zlar uydirmaga o'xshab tuyuladi.

Bu kunlar hammaga ham nasib etmaydi. Aslida qahraton qish chillasi ham hikmatsiz bo'lmagan. U hayvonot-u nabotning saragini sarakka, puchagini puchakka ajratgan holda hayot bardavomligining poydevorini yaratib qo'ygan. Qish chillasidan omon-eson o'tib kelganlargagina bu kunlar nasib etadi. Shunday ekan, uni yangi hayotga qiyoslash ham joiz ko'rinadi.

Navro'z – Tabiat mutanosibligining yorqin ko'rinishidir. Unga bag'ishlab asrlar davomida ko'plab she'rlar yozilgan. Har bayramda Navoiy boboning "Har tuning qadr o'lubon, har kuning o'sun Navro'z" degan niyatidan tortib Rabg'uziyning "Kun hamalga keldi ersa keldi olam navro'zi. Kechdi bahman zamhariri qish qolmadi qori bo'zi" tavsifigacha viridi zabon qilinadi. Qo'shiqlar kuylanadi: "Navro'z kelibon jumlayi jahon nozlana, nozlana, nozlanajakdir, Oftob qizdirib, asta-sekin yozlana, yozlana, yozlanajakdir". Asarlar bitiladi. Navro'z shu ma'noda, bitmas-tuganmas ilhom manbayi. Zamonlar silsilasida Navro'zni nishonlashni udumdan chiqarib yuborish uchun uning o'rniiga Navbahor ta'rif-langan kezlarda ham Navro'z Tabiat mutanosibligidagi o'z o'rnini yo'qotmagan. Faqat Navro'zdagina tun-u kun



tenglashib, faqat Navro'zdagina yangi kun boshlangan. Tabiat isbotlagan narsalar jamiyat yo'riqlariga yurmadi. O'shanda ham qishdan omon chiqqanlar shukronalar qilishib, keksalar ko'zlariga surgan gul-chechaklarni yoshlar boshlariga chamber qilib ko'tarishgan. Shu ma'noda Navro'z eng qadimiy va shu asno eng navqiron bayram sifatida takror-takror nishonlanishiga qaramay zavol bilmaydi, eskirmaydi, uning boqiyilgini tabiatning o'zi ta'minlab turadi. Tabiat o'z mutanosibligini o'zi himoya qiladi. Unda muhtojlik ehtiyojining o'zi bo'lmagani bois o'zgalariga boqmaydi. U o'ziga ishonadi. O'z kuchiga ishonadi. O'z yo'lining to'g'riligiga ishonadi. Shu sababli, munosabatlarga qarab javob qaytarish burchini unutmaydi. Omlarning yaratuvchisidan u shunday ko'rsatma olgan. Unga chetdan daxl qilish fojiga aylanadi. Unga amal qilmaslik mutanosiblikni buzadi.

Navro'z – mutanosiblik bayrami.

– Qishlog'imizning nomi Ko'hrud, – deya hikoya qiladi tojiy-u o'zbek xalqlarining suyuqli qo'shiqchisi Ro'rabek Murodov. – Ko'lar "tog" ma'nosini bersa, rud "soy" degani. Bolaligimizda Navro'z kelishi bilanoq qishlog'imiz aholisi o'rtadan hayqirib oqayotgan so'yiqliki tomonida turvolib, tarlafma-taraf bo'lib xalq qo'shiqlarini kuylab, aytishlarini qilishardi. Uning ovozi o'rtada soy yutib ketar, kuchli ovoz egalari-gina olqish olishardi. Qishlog'imizda azaldan amal qilib kelgan bu odat mening qo'shiqchi bo'lishimga kuchli turki bergan.

Masxarabozlarga qiziq mavzu bo'lgan, hozirgi paytda tovushlarni notaga solib, qo'shiqqa aylantirib beradigan texnik imkoniyatlarning tabiat mutanosibligiga hech qanday aloqasi yo'q. Xalq qalbidan o'rin oladigan yetuk san'atkorlar yetishib chiqishi dushvorligi shundan bo'lsa kerak. Tabiat bilan mutanosiblik insonlarni, jamiyat a'zolarini ham komillikka yetaklab, xaos hayotga mazmun bag'ishlay olish qudratiga ega.

Navro'z – mutanosiblik bayrami.

Tog'-u toshlardan tortib dasht-u sahrolargacha bosh ko'targan har bir giyohini asrab-avaylash savqi tabiysi bilan u o'z boqiyilgini ta'minlaydi. Aks holda, shafqatsiz ravishda noroziligini bildiradi. Uning ogohlantirib tomoq qirgani soxta muqaddas narsalarni supurib tashlash qudratiga egaligi bilan ulug'vor. Tog'lar ko'rki bo'lgan archalar qurisa yoki kesib ketilsa buloqlar quriydi. Sababi, ular o'z tomirlarida qish bo'y'i qor suvlarini yig'ib

turnako'zli buloqlarga suv yetkazib beradi. Artezian quduqlar ko'payishi hisobidan buloqlar-u chashmalarni boy bergan qishloqlar aholisi bolaligi go'zal davrlarda o'tganini armon bilan eslaydi. Ularga, ota-bobolaringiz sizlar kabi bo'lmagan, degan gapni eslatmoqning qanchalik foydasi bor?

– Yovvoyi butalar, saksovdular kesib ketilishi bilanoq sahralar o'z farzandidan ayrilgandek g'azab otiga mindi, – deb afsuslanadi ekologiya jonkuyari Anvarmirzo Husaynov. – Keyingi yillarda bizning Buxoroda cho'llashish tezlashdi. Mana, turizm uchun nihoyatda yaxshi imkoniyatlar ochilmoqda. Ammo chang-to'zon orasidagi qadimiy obidalar sayyohlarni nechog'li o'ziga jalb eta oladi? Ustiga ustak, shaharlarimiz ko'chalarini bezab turgan asriy chinorlar kesilishi ahvolimizni yanayam tang qildi. Buxoroni qo'ya turing, bugungi kunda poytaxtimiz Toshkent shahrida ham bu borada muammolar paydo bo'lmoqda. Jamoatchilik vakillari, ziyolilar, yurtimiz kelajagiga befarq bo'lmagan har bir fuqaro bu borada firoqlor ko'lishi lozim, deb o'ylayman. Eng katta dushmanimiz – loqaydlik. Aholi o'zi ko'rib turgan, o'zi hal etish imkoniga ega muammolarni ham qachon davlat hal qilib berar ekan, deb loqaydlik ko'rsatishi tabiat mutanosibligini buzganidek, jamiyat uyg'unligiga ham foydali emas.

Davlatimiz rahbari tomonidan so'nggi yillarda imzolangan muhim hujjatlarning, qaror va farmonlarning ko'pchiligi ona tabiatimizni asrash, yer usti va osti boyliklaridan oqilona foydalanish kabi masalalar yechimiga qaratilgan. Mamlakatimizdagina emas, Markaziy Osiyo mintaqasi uchun katta muammoga aylanayotgan suv bilan bog'liq masalada joriy yil 5-yanvardagi "Quy bo'g'inda suv resurslarini boshqarish tizimini takomillashtirish hamda suv resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Prezident qarori "suv resurslaridan foydalanish samaradorligi va madaniyatini oshirish orqali aholi ongida shakllangan "suv – tekin" tushunchasidan voz kechish hamda suvni tejaydigan sug'orish texnologiyalarini kengaytirilgan tartibda joriy etishni davom ettirish" maqsadini ko'zlaydi. Buning nechog'li dolzarbligini ona tabiatning o'zi uqitirib turibdi.

"Ipak yo'li durdonasi" Toshkent xalqaro kinofestivaliga o'tgan yili dunyoning turli mamlakatlardan har xil janrlarda yaratilgan filmlar yuborildi. Ular orasida fransuz kinojodkorlarining mintaqamizdagi eng yirik Fedchenko muzligi mavzusidagi hujjatli filmi ham bor edi. Bu muzikning tobuta kamayib borayotgani mintaq aholisigagina emas, biron dunyo ekologiyasiga nechog'li ta'sir qilishi Yevropaning olis hududidagi fransuz kinojodkorlarini tashvishlantirgani holda, boshqalarni qo'ya turaylik, bizning ijodkorlarimizning o'zi ham undan bexabarligini nimaga yo'yishni bilmaysan kishi. Hatto, har yili mana shunday serxarajat tadbirlarni o'tkazayotgan kinomiz mutasaddilari davlat byudjetidan milliardlab so'm mablag' olgani holda, keyingi yillarda na suv, na tabiat, na-da hayvonotu nabotot va na-da tabiat mutanosibligi buzilishining halokatlil oqibatlarlari haqida aholining ko'zini ochadigan aqalli birotta, hatto qisqa metrajli film yaratma olmagani achinarli holdir.

Navro'z – mutanosiblik bayrami.

Soqoli ko'ksiga tushgan otaxonning bahor kabi endi tetapoya qilayotgan nevarasi qo'liga qalamcha ko'chat berib, o'z ortidan ergashtirishida qanday ma'no bor? Uning nigohida: "Bolam, biz barchamiz mana shu ona tabiatning farzandlarimiz, u bizni kiydirdi, yedirdi, chanoq'imizni qondirdi, endi sen ham soxtakorlikdan yiroq bo'l, shu mitti qalamchani o'z vaqtda yer bag'riga suqib, yurtingni yashnat, aks holda yoningda o'z daraxting bo'lmaydi, yolg'izlanib qolasan, shamollar uvlagan to'zonli dunyoda yolg'izlanib qolishdan Yaratganning o'zi asrasin", degan egz u tilak bor.

Otaxonning nigohidagi bu ifodalar bejiz emas. Chunki es taniyotganida unga ham bobosi xuddi shunday degan. Bu o'git unutilmas. Hazrat Alisher Navoiy lutf etganlaridek:

*Tabiatda har neki odat bo'lar,
Chu eskirdi odat tabiat bo'lar.*

Ona tabiat hamisha o'zini o'zi yaratgan, tozalagan, yangilagan, borlig'i olamning mangu muvozanatiga xalaqit berishi mumkin bo'lganlarini chiqarib tashlab, tahrir qilgan va mukammallik shaklini olgan. Uning mana shunday evrilishlari davomidagi odatlari o'zgarmas qonuniyat tusini olgan. Mangu tosh uzra qulog'ingizni qo'yib bir zum sukut saqlang, uning qar'ida siz mitti maysaning nechog'li buyuk shiddatda to'lg'anayotganini tinglay olasiz, u uyg'unmoq istaydi, tug'ilmoq istaydi va ko'p o'tmay bu shiddatni tosh ham sig'dirolmaydi, qiyof til quyoshni ko'zlab olamga bo'y ko'rsatadi. Uning qudratiga bas kela olasizmi? Uning qudrati bilan bo'yqlasha olasizmi? Albatta, yo'q! Shunday ekan, unga yulash tutishga, uni hurmat qilishga, uni e'zozlashga majbursiz. Tabiatni ta'riflash emas, uni tushunish lozim. Shunda oqlona jamiyatni yaratishga ulush qo'sha olasiz. Tabiat va jamiyat uyg'unligi nuqtasini sizga Navro'zi olam taqdim etadi. U – yuksak Qadr. Asrlar davomida gullab-yashnagan, o'zligiga ega bo'lgan, buyuk zotlarni ulg'aytirgan jannat ma'voda sahrayi va badaviyga aylanish qismatidan Xudoning o'zi asrasin. Buning uchun har giyohni sizlab, har maysaning qadriga yetmoq lozim. Atiqli shoir G'afur G'ulom aytganidek:

*Uzilgan bir kiprik abad yo'qolmas,
Shunchalar mustahkam xonai xurshid.
Bugun sabza bo'ldi qishdagi nafas,
Hozir qonda kezar ertangi umid.*

Ha, bugun Navro'z. Bugun qishdagi nafas sabza bo'lib bosh ko'tardi. U qalb-larda umid uyg'otadi. Shu aziz Vatanni obod, farovon qilish umidi. Zero, inson uchun bundan o'zga buyuk saodat bo'lishi mumkinmi? Aslo, yo'q!

Shoyim BO'TAYEV

MULOHAZA

Bir paytlar keksalardan: "Odamning yoshi ulg'aygan sayin bolaligiga tez-tez qaytadigan bo'lib qolarkan", degan gapni eshitsam hayron bo'lardim. Endi shu holatni o'zim boshdan kechiryapman. Ayniqsa, nevaralarimning o'zaro munosabatlari, mashg'ulotlari-yu o'ynayotgan o'yinlarini ko'rganimda shunday holatga tushaman. Bolaligim kechgan davr ko'z oldimdan o'ta boshlaydi.

Bugungi go'daklarning nafaqat o'yin va mashg'ulotlari, o'zaro gap-so'zlari ham boshqacha. To'g'ri, davr o'zgardi, fan-texnika kundan kun taraqqiy etmoqda. Lof emaski, har kun, har soatda, hatto daqiqa sayin bir mo'jiza yuz berib turibdi.

BUGUN AQLIY O'YINLAR ZAMONIMI?

Shu kabi o'zgarishlar jarayonini kuzata turib, bugungi bolalar hayoti bilan bizning bolaligimiz kechgan davr o'rtasidagi tafovut ko'z o'ngimda yaqqolroq namoyon bo'la boshlaydi. Ochig'i, bizning bolalik paytimizda o'yinchoqlarning turlari ham, do'konlari ham bugungidek ko'p emasdi. Hozir do'konga kirsangiz, qo'g'irchoq-u ovunchoqlarning xilma-xilligidan ko'zingiz qamashadi. Bolaligimda bor-yo'g'i bir-ikkita qo'g'irchoq'im, sakratma arqonim, koptogim bo'lardi. Lekin hech qachon zerikmaganmiz. Chunki mahallamiz bolalari bilan ommaviy o'yinlarimiz bo'lardi. Masalan, "bostirma" o'ynardik: bolalar bittadan konfet qog'ozini bir bo'lak g'isht ostiga bostirib, 3-4 metr masofada turib qog'lidagi tosh bilan qandqog'oz bostirilgan g'ishtni nishonga olardi. Kim mo'ljalni aniq olsa, qandqog'oz shuniki bo'lardi. "Bo'yoqlar bahsi" o'yinida bir bola sotuvchi, boshqasi xaridor bo'lib, qolganlar turli rangdagi bo'yoqlar bilan nomlanardi. Xaridor bo'yoqni tanlagach, o'sha bo'yoq nomini olgan bola qochar, xaridor esa uni quvardi. Tutib olsagina "bola-bo'yoq" xaridor tomonga o'tardi. Shunga o'xshash "Oq terakmi, ko'k terak" o'yinini ko'pchilik eslaydi. Arqonda sakrashni ayt-maysizmi?! Bir o'zingiz sakrasangiz ham, guruh bo'lib o'ynasangiz ham hech jonga tegmasdi. To'pni sakratib, bir-birimizga uzatib o'ynash zavqichi? Boshqa joylarda qanday nomlanishini bilmadim-u, Toshkentda yassi toshni tepib o'ynaladigan "sopalak" o'yini bo'lardi.



Asfaltga bo'r bilan kataklar chizib, raqamlar bilan belgilab qo'yilardi. Keyin qo'ldagi yassi toshni kataklarga otib, tosh tushgan katakka bir oyoqda sakrab borilardi. Bir oyoqni ko'targan holda ikkinchi oyoq bilan toshni tepib, kataklar bo'ylab yana orqaga qaytib kelinardi. "Beshtosh" qizlarning eng sevimli o'yinlaridan edi: toshlarni qo'l bilan sochib, keyin ularni chaqqon terib olish talab qilinardi. Yana shishaning qopqog'iga loy to'ldiradik va bo'sh qopqoqlarni terib qo'yib, navbat bilan uzoqdan mo'ljallab urib, yutib olishga harakat qilardik. Uni "qopqog' o'yini", deb atardik. "Qarabtep" tepish o'g'il bolalarning o'yini hisoblansa-da, ba'zi qizlar ham ulardan qolishmasdi. Bir parcha teriga qalay yoki qo'rg'oshin yopishtirilib, bir oyoqda, ba'zan tovonning yon tomoni bilan tepib o'ynalardi. Bundan tashqari, faqat maktabda emas, mahallalarda ham futbol, voleybol o'ynardik. Ayniqsa, o'g'il bolalar uchun futbol eng sevimli mashg'ulot edi.

Bu o'yinlarning barchasi yugurish, sakrash, tepish, qo'l va barmoqlarni chaqqon harakatga keltirish, xilma, jismoniy mashqlarga asoslanardi. Har bir o'yin abjirlikka, sezgirlikka o'rgatar, bolalarning sog'lom bo'lishida katta ahamiyat kasb etardi. Yana ham ahamiyatlisi, o'yinlar bolalarning boshini qovushtirar, jamoa bo'lib harakat qilishga o'rgatar, ahillikka odatlantirardi.

To'g'ri, bugunning bolalari ham zukko, aqli, kompyuter, telefon, smartfon kabi vositalardan yaxshi xabardor. Nevaralarimning telefonni ipidan ignasigacha bilishini, kompyuter va boshqa texnik asbob-uskunalaridan bemalol foydalanishini ko'rib havas qilaman. Lekin kun bo'yi aksariyat o'g'il, qizlarning qo'ldan telefon tushmasligini, farzandlarimiz, nevaralarimiz texnika "quli"ga aylanib qolayotganini ko'rsam xavotirga tushaman.

Xo'p, bugun farzandlarimiz zamonaviy texnika va texnologiyalarni puxta egallashyapti. Bu yaxshi. Biroq maktabda, hatto uyda ham aqliy mashg'ulot bilan band bola qachon jismonan chiniquadi?! Ehtimol, ayrimlar farzandlarini sport to'garaklarga berganlarini ro'kach qilishlari mumkin. Lekin besh qo'l barobar emas, farzandini to'garakka berishga hammaning ham imkoniyati bo'lavermaydi. Xullas, bolaning bolalarga xos o'yinlari faqat uyda aqliy mashg'ulotlar, sport to'garaklari bilan cheklanib qolmasligi kerak.

To'g'ri, bolaligimiz kechgan davr bilan bugunni qiyoslab bo'lmaydi. Lekin hozir ham bolalarni chiniqtiradigan, hatto bizning bolalik davrimizdagidan ko'ra mukammal, qiziqarli o'yinlar bor. Sport anjomlari, bog'cha yoshidan boshlab bolalarni chiniqtiradigan turli xil mashqlar to'plamlari ko'p.

Qirq yosh va undan oshgan kishilar ham, shubhasiz, jismoniy mashqlarga ehtiyoj sezadi. Bu borada kerakli tavsiyalar, qo'llanmalar bor. Unda gap nimada? Asosiy masala jismoniy tarbiya borasidagi mavjud tavsiya va qo'llanmalar amalga qanday tatbiq etilayotganida. Chunki bugun bog'cha bolalaridan tortib, talabalargacha aqliy mehnat bilan band. Aksariyat bog'chalarda bolalarga o'yinchoq berib qo'yiladi yoki qog'oz-qalam berib surat chizdiriladi. Maktab va o'quv yurtlarida jismoniy tarbiya soatlari bor, lekin mashg'ulotlar har kuni o'tkazilmaydi. Ishxonalarda ham hamma o'z ishi bilan mashg'ul, uy bekalari yumushlari va seriallardan ortishmaydi... Xullas, bugungi texnika taraqqiyoti davrida jismoniy tarbiya bilan shug'ullanishga vaqt yetmaydi. Maktab o'quvchilari qo'shimcha mashg'ulotlar, repetitorga qatnaydi. Bu tashvishlar bolalarning nafaqat aqliy, balki jismoniy toliqishiga sabab bo'ladi.

Xullas, inson har qanday yoshda ham jismoniy tarbiya bilan shug'ullanishi zarur, lekin buni qanday amalga oshirishni har kim o'z imkoniyatidan kelib chiqib belgilashi lozim. Nazarimda, farzandlarimizning jamoa bo'lib o'ynaladigan o'yinlarga ehtiyoji bor.

Gulchehra UMAROVA



DIYDOR

Yoymachi ko'klam ramazon oyi arafasida qut-barakotli qor-u yomg'irlari bilan shitob kirib keldi. Ulug' ayyomlar arafasida ma'ruf odamlar bir-birlarini yo'qlash, hol-ahvol so'rashish, g'amxo'rlik ko'rsatishga moyil bo'ladilar. Milliy udumlarimiz ham doim odamgarchilikni yodga soladi. Shak yomg'irlari ushbu insoniy tuyg'ularni yanada kuchaytiradi. Eshigimda shoir Mahmud Toirning gulduragan tovushi eshitildi.

— Diydor g'animat, deb kelaverdim, Ibrohim aka, aybga buyurmang, bezovta qilib vaqtingizni olgan bo'lsam.

— Kelavering, kelavering, Mahmudjon, qadamlaringizga hasanot! — deya eski do'stlar quchoq ochib ko'rishamiz. Shoirning xandon-hushon chehrasidan xona nurga to'lganday bo'ladi.

— Parkent tepalariga bu yil ko'klam ayamay ko'ksini tutdi, — deydi Mahmud fотиha o'qilgach, ko'tarinki ohangda. — Odamlar nazdida osmondan xuddi qut-ezgulik yog'ilayotganday. Ertalab ishga o'tlanib, hovliga tushsam, yuzimga tog' tomondan bir ilohiy epkin urildi. Xoh ishonang, xoh ishonmang, tilimni shu zahoti bir she'r chuchita boshladi. Shu kayfiyatda huzurlingizga keldim. Bugun ijorat bersangiz, she'r o'qiydigan kunga o'xshaydi.

Mahmud qo'ynidan qora muqovali daftarini olib stolga qo'yd. Daftar ko'p tutilgani, egasiga sadoqat bilan xizmat qilayotgani muqovasidan ko'rinib turardi. She'r o'qish shoir Mahmud Toirga suv-havo kabi ehtiyojga aylangan. Ilgarilari she'r o'qigisi kelsa, "Do'rmon"ga — goh ustoz Said Ahmad dargohiga, goh donishmand Abdulla Oripov bog'chasiga, goh "Huvaydo"dagi Erkin Vohidov hovlisiga, goh bar urib, Muhammad Yusuf huzuriga yo'l olardi.



Ibrohim G'AFUROV,
O'zbekiston Qahramoni

She'r o'qiydigan chog'lari uning chinakam masarrat onlari edi. Ustozi kabirlar uni chehrakushoy qarshi olishar, o'zini, she'rlarini alqashar, yangi g'oyalar berishardi. Mahmud bunday she'rxon davralardan qo'yni-qo'nji to'lib, ilhomlanib qaytardi. O'sha damlarni eslab so'radim:

— Ustozlarga she'ringizni qanday o'qirdingiz?

U dabdurustdan bunday savolni kutmagan ekan shekilli, biroz o'ylanib qoldi. Sezganman: u doim shunday kutilmagan holatlarga duch kelib qolsa, ko'pincha darhol sukutga cho'madi, so'ng, albatta, jilmayadi. Bu safar ham tabassum qilib dedi:

— Albatta, eshitarli qilib o'qiyman. Meni hayajon bosadi, bilmayman, bu she'r o'qishda bo'ladigan odatiy hayajonmi yo ustozlar salobatidanmi?

Shoir yana o'ylanib qoldi, keyin: "Bir voqeani aytib beraymi? Vaqtingizni olmayapmanmi?" — dedi.

— Ayting, ayting.

— 2016-yilning aprelida Erkin aka Vohidovni ko'rgani uylariga bordim. Yaqinda davolanishdan chiqqan, o'zlarini biroz oldirib, siniqib turgan ekanlar. Ma'yus jil-

mayib, kutib oldilar. Biroz hol-ahvol so'rashganimizdan keyin, "Mahmudjon, ikki og'iz she'r o'qing", dedilar. She'r o'qish va eshitishni sog'inganlarini sezdim... "Qanday bo'larkin?" — dedim vaziyatga qarab. "O'qing, o'qing", dedilar. Men qo'shiq qilib aytiladigan sakkiz qator she'rimni o'qidim tasalli ma'nosida. Erkin aka ko'zlarini horg'in yumib yotdilar, boshlari baland qo'yilgan katta yostiqa chuqur botgan, majlisiz edilar. Keyin ko'zlarini ochdilar, chehralariga chiroyli tabassum yoyildi. "Yashang, — dedilar, — ovozingiz menga darmon bo'ldi". Erkin akani oxirgi ko'rishim shu bo'ldi.

Mahmud Toir el-yurtning davralari, anjumanlarida ko'p she'r aytadi, xuddi ovoziini sozlab olmoqchiday o'z she'rlarini o'qishdan oldin Abdulla Oripov, Erkin Vohidov, Omon Matjon she'rlarini qiroat bilan zalga taqdim etadi. Uning tovush to'rlari doim tarang holatda, andak yelpindidan jo'shadi. Oxirgi yillar ayoli Gulchehraxon vafot etib, Mahmudning ovozi picha anduh tortdi. Lekin shoir hamon hozirjavob, ovozdagi biroz shikastalik hatto yoshiga yarashganday.

— Mahmud, ko'p she'r yozayotganingiz o'zingizga sezilmaydimi? — deb so'radim. — Mavzular, tizimlar, ohang-ritmlar, shakllar takrorlanib qolganday tuyulmaydimi?

U yana sukutga botdi. Samimiy chehrasiga tag'in tabassum shu'la soldi.

— Qarang, Ibrohim aka, — dedi chiroyli ochilib, — bugun ertalab tushimga kirgan ekanmi, kutilmaganda bir-ikki satr tilimda



aylana boshladi. To ko'chaga chiqqunimcha, u to'rt qator rosmamam she'rga aylandi. Men nima qilay? Bu ne'mat... o'zi keladi... Men shunda na'matak orasida o'tirgan bulbulning holini tushunaman. Ba'zi do'stlarimni, xususan, Sirojiddin Sayyid, Muhammad Yusufni ham bilaman: doim shunday holatda bo'lgan. She'r qanday bo'lmasin, alohida holat, ko'kdan, yerdan, yurakning qaridan paydo bo'ladi. Yana bir qancha ikkiliklar, to'rtliklar, yangi she'rlar yozdim. Ular, albatta, oldingi she'rlarimning davomi... Qay bir tarzda davom ettiradi. Hozir ayrim yoshlar yangicha shakllar topib, mavzularni yangilab yozishyapti. Zero, nima demang, har bir odam ham yangilik, ham eskilik ayni bir paytning o'zida...

Mahmud andak she'r falsafasi tomonga o'tarkan, buyuk Maxtumqulining:

"Tumanga burkanib tog'lar bosh egar,

Yellar qo'zg'alolmay yerda sudralar", —

degan she'rining go'zal manzarasi ko'z o'ngimda gavdalandi. Bu favqulodda obrazlarni beixtiyor ayni chog'da Mahmud zamon-

doshim o'qiyotgan ikkiliklar va to'rtliklar yonida tasavvur qildim.

"Bir arpaga arzimam

bu jahon xayolimga,

Bilmam, olam ne ko'yda

men hayron o'z holimga", — degan Maxtumqul bilan Mahmudning mana hozir o'qiyotgan:

"Nafsim nadomatin

har kun ohi bor,

Va lekin bu ohning

tubsiz chohi bor", —

degan she'ri o'rtasida qandaydir qarindoshlik borligini sezaman. Va bizning Mahmud shoir ham chakki emas aslo, deb qanoat tuyaman. Shoirilar haqiqatni aytishga tug'ilganlar-da, deymam inkishof yuzasidan.

Ha, Mahmud Toir — quyulib kelguvchi tizimlar shoiri. Tizimli tizma shoir. Katta shalola, kichik shalola, ularning zarralari yanglig' she'rlar. U hech qachon umum qabul qilingan axloq-ma'rifiy aqidalardan chetlab ketmaydi. Doim shu umummilliy aqid ichida. She'riy, hayotiy mezonlar ichida. Ammo she'rlarini, boya o'zi aytmoqchi, ilhom poyozlari ichida yozadi. Yangi zamona uni o'zgartira oldimi? Vaqt sochlari-ning bir paytlardagi qo'ng'iroqlarini ayovsiz yulib ketdi. Balki

qadamlarining shiddati sal pasaygandir. Jur'atlari sal susaygandir. Ammo bir narsa ravshan: unda she'r zavqi, qofiya shavqi hamon tarang!

Parkentning shukuhli tepaliklari uzra yonboshlaganda, shoirning qalbidan hamon ma'rifiy she'r quyulib otilib chiqadi. Tepalar tagida azal yog'duli buloqlar mildiraydi. Mahmud Toir yoshi yetmishdan oshganda she'rni xuddi Habibi, Sobir Abdulla, Chustiy, Uyg'un, Charxiy domlalardek "va'dayi ishq" deb biladi. Tizmalari xuddi Bahoudin naqshlaridek odamiylik muhabbatining sharoralarini sochadi. Yetmish yoshning cho'qqilaridan oshganda, qarang, "Bolalik bahorini sog'indim juda", deb hapriqadi uning yuragi. Va orqasiga qaray-qaray, entiksa-da, aslida kelajak bahorlarini ko'zlayotgani bililib turadi.

U hamisha harakatda; harakatda esa hayotning poyonsiz mujdasi bor. Shu mujda nafs, nadomat, tubsiz choh bilan cheksiz shoir ohini bog'layapti. Bu og'ir falsafiy tushunchalar she'rdan havas uchun joy olyaptimi? Yo'-o'q, ular odam umrining mazmunini ifodalayapti va uni yuragimizga, shuurimizga olib kiriyapti.



Mahmud TOIR,
O'zbekiston xalq shoiri

DA'VAT

Uyg'oq dilni uyg'oq ruhlar xush ko'rgaydir,
G'afiat bosgan bo'lar-bo'lmas tush ko'rgaydir,
Imon hushyor yuragida nish urgaydir,
Har millatda uyg'otguvchi inson bo'lsin,
Uyg'otgan ham, uyg'ongan ham omon bo'lsin.

Vatanparvar vatan ichra bir vatandir,
Oppoq guldek chaman ichra bir chamandir,
Millat mardi millat uchun oliy sha'ndir,
Ergashganlar mudom mardlar tomon bo'lsin,
Uyg'otgan ham, uyg'ongan ham omon bo'lsin.

Tinchlik tilab Xudoyimga zorlovchilar,
Dunyo ahlin ezgulikka chorlovchilar,
Xush niyatda quyosh kabi porlovchilar,
Har bir xalqda, har bir yurtida har on bo'lsin,
Uyg'otgan ham, uyg'ongan ham omon bo'lsin.

Mardum borki, orzusi bor, armoni bor,
Intilganga tole yordir, imkoni bor.
Qaysi elning uyg'otguvchi sarboni bor,
Qadrin bilsin, umrin tilab, shodmon bo'lsin,
Uyg'otgan ham, uyg'ongan ham omon bo'lsin.

Inson bo'lmoq bu, avvalo, Xudodandir,
Millat baxti, millat ko'rgan vafodandir,
Oddiy odam qilgan oddiy duodandir —
O'zbekiston jahon ichra jahon bo'lsin,
Uyg'otgan ham, uyg'ongan ham omon bo'lsin.

SENIKI

Oppoq atirgulti dilingda o'stir,
Dilingga sig'masa, qo'lingda o'stir.
Qo'lingga sig'maydi g'unchalab ketsa,
Ayo do'st, sen uni yo'lingda o'stir.

Gul bo'lsang, go'zalsan, ko'zga sig'maysan,
Bulbul bayotidek so'zga sig'maysan,
Baxtiyor bog'bondek yuzing lovullab,
Xudoni xushlasang, o'zga sig'maysan.

BESH KUNLIK DUNYO

Izingdan taralgan ifor seniki,
Gullarga yarashgan kibor seniki,
Dili gul, qo'li gul, yo'li gul o'zing,
Shoirmi shoshirgan ash'or seniki,
Seniki... seniki... seniki...

Ko'ngilning ko'chasi ko'ngildan kengdir,
Insonsan, iymonning izmiga ko'ngil,
Qaro yer bag'rida bandasi tengdir,
Besh kunlik dunyoga besh ketib qo'yima.

Bu olam go'zaldir orzusi bilan,
Ming rangda tovlanar yog'dusi bilan,
Boyligi chirmaydi jodusi bilan,
Besh kunlik dunyoga besh ketib qo'yima.

Yolg'onlar joningda yaldaydi gohi,
O'z ko'zing o'zingni aldaydi gohi,
Har yolg'on aslida gunohning chohi,
Besh kunlik dunyoga besh ketib qo'yima.

Oilang bag'rida baxt bo'lay, desang,
Bolang quvonchiga taxt bo'lay, desang,
Oxirat g'amini bugun ye, yesang,
Besh kunlik dunyoga besh ketib qo'yima.

Savobing izingda porlab turadi,
Jannat o'z bag'riga chorlab turadi,
Shayton ham yoningda poylab yuradi,
Besh kunlik dunyoga besh ketib qo'yima.

To'lin oy qaro tun jismiga chiroy,
Yulduzlar yuz ochgan husniga chiroy,
Azizlik insonning ismiga chiroy,
Besh kunlik dunyoga besh ketib qo'yima.

UMR UVOLI

Gilam to'qimoqqa to'qmoq kerakmas,
Oyga chiqish uchun so'qmoq kerakmas.
Gugurtin olqishlab yurganlar aytar,
O'tin yoqish uchun chaqmoq kerakmas.

— Nima kerak? — desang, boshin qashiydi,
— Voy, — deydi, — kechagi hunim yaxshiydi.

Oltimishdan oshsa ham bu bechoraning,
Qarang, aql tishi hamon tishiydi.

Iymonin qorniga sig'dirib olgan,
Toliqsa, yeyishdan, ichishdan tolgan.
— Izida nima bor? — deya so'ramang,
O'rtida umrining uvoli qolgan..

NISHAB

Bahorni sog'ingan bog'larga bordim,
Qorlardan zerikkan tog'larga bordim.
Qishning qabog'iga osilgan muzni
Ketmonning sopida urib yubordim.

Yer uzra tushdi-yu, chilparchin bo'ldi,
Loylarga sanchilib, gilparchin bo'ldi.
Nogahon yuz burib tomlarga boqsam,
Bahorni sog'ingan tarnovlar kuldi.

Fevral o'z umrini yashab bo'lyapti,
Osmon so'nggi qorin to'shab bo'lyapti.
Kela qol, bahorim, sog'intirma ko'p,
Olam sen tomonga nishab bo'lyapti.

DO'RMON BOG'LARIDA

Do'rmon bog'larida salqin saharlar,
Bahor kelishidan berar xabarlar.
Erishdan erinib qolgan qorlar bor —
Saflarning ortida qolgan navkarlar.

Archalar qorlardan qutulib yayrar,
Tonggi shamollarga ignasin qayrar,
Bu bog'lar bulbuli bormikin omon —
Ularning o'rniga yuragim sayrar.

Musicha bo'g'otda "ku-ku"lar asta,
Ko'klam sog'inchidan ko'ngil shikasta.
Nazdimda, bahorning barmog'i bilan,
Shukr, ushbu she'rni yozdim birpasda.

TOSH

Uyingizning gullari,
Cho'ldagidan afzaldir.
Og'zingizga solgan tosh,
Qo'ldagidan afzaldir.

TO'RTLIKLAR

She'r manim qalbmning qanoti bo'ldi,
She'r manim umrimning bayoti bo'ldi.
Bilmam, qanday o'tdim el elagidan,
Shukr, she'r Mahmudning hayoti bo'ldi.

Bolalikda umring uzun ko'rinar,
Barchasi ziyoda, fuzun ko'rinar.
Keksalik yel misol yetib kelganda,
Odamzot bechora, zabun ko'rinar.

Muz asli bu qishning zardasi erur,
Qish o'zi bahorning pardasi erur.
Bulbullarga beshik belagan bahor,
O'n sakkiz ming olam xandasi erur.

O'zing yer, ko'lankang maydon bo'lsa ham,
Nazdingda makoning osmon bo'lsa ham,
Ayt, nechun o'zingni anglamaysan hech,
Bu davr-u davroning yolg'on bo'lsa ham?!

Yo'llar umrimizga abad yo'ldoshdir,
Quvonch-u qayg'uga tilsiz dildoshdir.
Bizlar tobut tutib ketayotganda,
Bizga yelka tutgan mangu bardoshdir.

Topganin tutamlab bolasin boqqan,
Topmasa, qalbdagi nolasin boqqan.
U mening onamd, u mening onam —
Oppoq sochlarining tolasin boqqan.

IKKILIKLAR

Oshliqlik — umrimiz oliy unvoni,
Bu shunday unvonki, ko'pdir armoni

Xazon kuz hayrati chirib ketguncha,
Qor ham qish quvonchi erib ketguncha.

Soxta salomingga alik so'raysan,
O'chgan chirog'ingga pilik so'raysan.

Uyatdan qizarsang qoning tozadir,
Shukur qil, ko'plarga bu andozadir.

Qancha ko'p gapirding, shuncha sir sotding,
O'zingning sha'ningga o'zing tosh otding.

G'iybatning xirmoni sira to'lmagan,
Shundan g'iybatchining baxti kulmagan.

O'qigan odamni uqqanda ko'rgin,
Yaxshilik yaxshiga yuqqanda ko'rgin.

Dunyo asli qo'lning kiri, deganlar
Bir umr shu kirning g'amin yeganlar.

Tongda kulgan quyosh oqshom qizarar,
Inson qilmishidan balki bo'zarar.

O'zing uzoqdasan, mehning nuri bor,
Sen uni ko'ngildan ko'ngilga yubor.



E'TIROZ

Bugun qayoqqa qaramang, konsert saroylarimi, to'y-hasham yoki tadbirmi, hamma joyda fonogrammada kuylash urfga aylanmoqda. To'g'ri, ayrim san'atkorlar, to'liq bo'lmasa-da, konsert dasturlarida jonli kuylashga harakat qilishyapti. Qolaversa, xonanda katta konsert zallarida to'liq jonli ijroda konsert bersa, zal jirasining 50 foizini to'lashi borasida Madaniyat vazirligi chegirma berish huquqiga ega. O'z ovoziga ishonadigan Yulduz Usmonova, Og'abek Sobirov, Mahmud Namozov, Shuhrat Daryo, Rasul Seytjonov, Ahror Usmonov kabi xonandalar konsert dasturlarini jonli ijroda namoyish etishyapti. Lekin bundaylar juda ozchilikni tashkil etadi. To'g'ri, ba'zilar: ijro qanday bo'lishidan qat'i nazar, konsert zallarimiz hamisha to'la, muxlislar mazza qilib eshityapti, to'y-hashamlarda ham hech kim e'tiroz bildirayotgani yo'q, deyishi mumkin. Aslida loqaydligimiz sabab xonandalikni pul topish manbaiga aylantirib olayotgan yoki to'y uchungina "ijod" qilayotganlar ko'payib borayapti.

Shu o'rinda chet ellik san'atkorlar faoliyatiga to'xtalib o'tsak. Avvalo, ular fonogrammadan qanday holatlarda foydalanish, uni qanday ishlatishni yaxshi bilishadi. Ya'ni qo'shiq musiqasini ijro etishda murakkab vaziyat

SOXTA “YULDUZ”LARDAN QACHON QUTULAMIZ?

yuzaga kelgandagina, faqat musiqa uchun elektron asbob-lardan foydalanish mumkin. Bunda, aytaylik, chiptada konsert repertuaridagi 8-9 ta asarning musiqasi fonogrammada aytilishi ko'rsatiladi va o'z-o'zidan chipta narxi arzonlashtiriladi. Bizda esa, konsert reklamalariga bemaolol "Fonogrammada ijro etiladi", degan so'zlar yozib qo'yiladi. Vaholanki, bu holatda 100-500 ming so'mga chipta xarid qilib, konsert ko'rayotgan iste'molchining huquqi buziladi. Mayli, odamlar o'z huquqlari buzilayotganiga ahamiyat bermay, bemaolol konsertlarga tushayotgandir. Lekin iste'molchilar huquqini himoya qiluvchi agentlik qayoqqa qarayapti? Bu borada agentlikning vakolati qay darajada? Tashkilot ishlayaptimi o'zi? Agar ishlayotgan bo'lsa, 24 yildan buyon mavjud qonunchilikka nima uchun o'zgartirish kiritmayapti, degan savollarga javob yo'q. Zero, yurtimizda "fonogramma" so'zidan foydalanish va amaliyot-da uni to'g'ri ishlatish shartlarini aniq belgilash, konsert chiptasi va reklamasida repertuarni ko'rsatish qachon yo'lga qo'yiladi? Kezi kelganda estrada san'atida faoliyat yuritayotgan ijodkorga zarur shart-sharoitlar, imkoniyatlar yaratib berilayotganiga qaramay, ayrim xonandalarda o'ziga nisbatan talabchanlikni yo'qotib, xotirjamlikka, o'zibo'larchilikka berilayotgani, qiziqchilikka qadam qo'yayotgan yoshlar konsert dasturlarida bachkana qiliqlari va

gap-so'zlari bilan milliy-ma'naviy qadriyatlarimizga, odob-axloq me'yorlariga zid harakatlar qilayotgani ham bor gap. Ochig'i, ko'pchilik bu borada Madaniyat vazirligi va "O'zbekkonsert" davlat muassasasiga e'tiroz bildiradi. Biz bu o'rinda mazkur tashkilotlar faoliyatiga baho berishdan yiroq-miz. Lekin masalaning mohiyatiga bir qur nazar tashlashni lozim topdik. Ma'lum bo'lishicha, 2021-yil 1-yanvardan e'tiboran omma-viy tadbirlarga, katta zallarda, viloyatlarda o'tadigan yakkaxon konsertlar va turli konsertlarga ruxsatnoma berish uchun vakolatli organ sifatida Ichki ishlar vazirligi belgilangan. Bu ishga mas'ul bo'lgan Ichki ishlar vazirligi hududiy boshqarmalari kengashlarida konsert dasturlari va ssenariysini ko'rib chiqish, repertuarni g'oyaviy-badiiy jihatdan baholash, ijrochilar tomonidan sodir etiladigan nojoiz xatti-harakatlarga baho berish kabi jarayonlarga mas'ul ijodiy mutaxassislar yo'qligi natijasida, ko'rsatib o'tilgan holatlar aniqlangandan so'ng Madaniyat vazirligi tushuntirish va tavsiyalar orqali munosabat bildirish bilan cheklanmoqda. Agar ahvol shunday davom etaversa, konsertlarning saviyasi haqida gapirmasak ham bo'ladi. Lekin biz konsertlarga ma'naviy oziq olish, hordiq qicharish uchun pul sarflab vaqtini ketkazayotgan muxlislar, iste'molchilar huquqi buzilishini istamaymiz.

Balki yurtimiz hududida konsert-tomosha dasturlarini tahlil qilish, ko'rib chiqish, baholash va ruxsatnoma berish tizimini "O'zbekkonsert" davlat muassasasida qayta joriy etish yoki bu tashkilotning vazifalarini ichki ishlar boshqarmalariga o'tkazish kerakdir. Chunki "O'zbekkonsert"ning o'z nomi bilan konsert borasidagi yagona siyosatni amalga oshirishi belgilangan bo'lsa-da, bu tashkilot Madaniyat vazirligi huzuridagi muassasa sifatidagina faoliyat yuritayotgandek taassurot qoldiradi. Xullas, iste'molchilar huquqini himoya qiluvchi agentlik hamda Madaniyat vazirligi birgalikda katta konsert saroylarida yakkaxon dastur namoyish etadigan barcha san'atkorlar to'liq jonli ijroda konsert berishi kerakligi va barcha muammolarni texnik masalalarga cha hal etish haqida Hukumatga taklif kiritishi lozim, deb o'ylaymiz. Shuningdek, konsertlar, to'y va tantanalarda ham to'liq jonli ijroda bo'lishini shart qilib qo'yish zarur. Bir so'z bilan aytganda, san'atkorning sahnadagi nojoiz xatti-harakatlariga, shaxs kamolotiga, ma'naviyatiga zarar keltiruvchi holatlarga javob beradigan vakolatli organi belgilash va uni qonuniy nazorat qilish tizimini yaratish lozim. Jonli ijroga o'tish qo'shiq san'atini soxta xonandalardan xalos etadi, ijroda badiiyat kuchayadi, milliy qo'shiqchiligimiz soxta "yulduz"lar, betayin ijro va ijrochilardan tozalanadi. G. FAYZIYEVA.

BUGUNNING GAPI

Nihoyat, O'zbekiston ko'chalarida ham elektromobillar ko'payib qoldi. Xitoy tomondan shovqin-suronsiz, sassiz bostirib kelgan bu mashinalar bozorlarni zabt etgach, shahar bo'ylab yoyilib ketdi. Bundan ikki yil avval ko'chada onda-sonda ko'zimiz tushgan elektromobilga hozir har qadamda duch kelamiz. Chunki Xitoyning yetakchi elektromobil ishlab chiqaruvchi BYD singari kompaniyalari dunyo bozorida Yevropa va Amerika kompaniyalarini ham dog'da qoldirmoqda.



TARAQQIYOT XURUJI


Kompaniya kuni kecha "Yuan Plus" krossoveri narxini salkam 12 foiz, eng arzon "Seagull" (9 700 dollar) rusumlisini 5 foizga arzonlashtirdi. Kompaniya o'tgan yili chetga 100 mingdan ortiq "Yuan Plus" elektromobili sotgan ekan. Joriy yilda turli rusumda jami 11,5 million dona elektromobil ishlab chiqarishni ko'zlayapti. Bu mashinalar bizda kundan-kun qimmatlashib borayotgan yonilg'ini ishlatmaydi, elektr quvvatida harakatlanadi, kamchiqim. Xorijda arzon, bizda qimmat sotiladigan o'zimizning avtomobillarimizdan ko'ra qulay va sifatliroq. Bu yaxshimi, yomonmi, bilmadim. Endi "UzAuto Motors" mashinalarining narxi ham biroz tushsa kerak. Agar shunda bo'lsa, avtomobil ishqiobzlarining kuni tug'di deyavering. Gap bunda emas, uning oqibatida yuzaga keladigan muammolarda, ya'ni shaharlarda, xususan, poytaxt ko'chalari-dagi yengil mashinalar sonining keskin ortib borayotganida. Oqibat qanday bo'ladi? Albatta, ko'chalarda tirbandlik oshadi. Avtomobil yo'llarini kengaytirish, yangilarini qurish talab etiladi. Bir tomondan do'konlar, oshxona-restoranlar, ikkinchi tomondan katta yo'llar orasida sezilarli qisqargan piyodalar yurish yo'laklarining yo'qolib ketish xavfi kuchayadi. Aslida gap bunda ham emas. Xo'sh, shahar havosi tozaradimi yoki aksincha – bilmadim. Chunki bizda chang bor, ustiga ustak, qurilishlar davom etmoqda. Shaharsozlik "madaniyati"ni puxta egal-lagan quruvchilarimiz o'nta-yigirmata ko'pqavatli uy qurgandan keyin bitta maktab,

bash-o'nta bolalar maydonchasi, sport ishootlari qurish lozimligini bilsa ham, bu ishga aslo urimmaydi. Chunki ortiqcha tashvish, ortiqcha chiqim, balki tuzuk-quruq foydasi ham yo'qdir... Shu bois poytaxtimizda bundan o'n yil oldingi 300 ming nafardan ziyodroq o'quvchilar soni ustiga yana yuz to'qson ming nafar bola qo'shilib, jami salkam yarim millionga yaqinlashgan bo'lsa-da, maktablar soni 30-40 taga ortgan, xolos. Aslida ming o'quvchiga bitta maktab lozimligi nazarda tutilsa, yana 150-160 ta maktab qurish kerak. Gap shunda. Yurtdoshlarimiz avtomobilni shunchalar qadrlaydiki, ko'pqavatli uylarning kirish yo'laklarigacha mashinasini taqab, ko'ndalang qilib qo'yadiganlar bor. Mashinalar orasidan sirg'alib o'tib ishga, maktabga yo'l olasan, sirg'alib o'tib, uyingga kirasan. (Kun bo'yi mashinalar oralab yurasan). Mashinasevarlar esa, bu yo'lak eshigidan yigirma-ta xonadon ahli kirib-chiqishini o'ylamaydi. Xuddi otasi qurib ketgan uyda yashayotganday his etadi o'zini. Yo'l yoqalari, ishxonalar atrofi, sport maydonchalari, bog'lar, oshxonalar oldi, xullas, shaharning qayerida bo'sh joy bo'lsa, barchasini avtomobillar qoplagan. Ayniqsa, bolalar erkin o'ynaydigan maydonlarni avtomobillar egallab olgani achinarlidir. Bolalar qayoqqa borsin?! Gap shunda! Bu tarafdin esa, xitoylik do'stlarimiz mashinalarini arzonlashtiryapti...

Humoyun AKBAROV

TILBILIM

Xalq orasida "alla" so'zi "Alloh" ismidan, go'dak qulog'iga "Alloh" ismini singdirish uchun shunday aytilgan, degan qarash bor. Ammo Shavkat Rahmatullayevning "O'zbek tilining etimologik lug'ati"da "alla"ga shunday izoh berilgan: "Bu ot qadimgi turkiy tildagi "tinchlanish" ma'nosini bildirgan ala (ala-ala) undov so'zidan o'sib chiqqan; o'zbek tilida "a" unililari "ä" unililariga almashgan, "i" undoshi qatlangan: ala-ala > alla > ällä". Chindan ham, "Devon-u lug'otit-turk"-da "ala" so'zi bor va shunday izohlangan: "ala – sekin, shoshilmay; ala-ala deydlar. Sekin-sekin, asta-asta. Bu so'zga "k", "i" qo'shib ola kel ham deyiladi". Ushbu izohdan anglashiladiki, "ala" so'zi bir ish-harakatni sekinlashtirish, aytaylik, shoshayotgan, g'azablanayotgan odamga nisbatan tinchlantirish maqsadida aytilgan bo'lishi mumkin. Ammo uxlayotgan bolaga "ala-ala", ya'ni "sekin-sekin" deyish g'alizroq tuyuladi. "Devon"da Koshg'ariy "alla" ma'nosida boshqa bir so'zni keltiradi: "balu-balu – onalar bolasini beshikda uxlatish uchun qo'llaydigan alla o'rnidagi so'z". Agar "alla" turkiy etimologiyaga ega bo'lsa, aynan ana shu "balu-balu"dan keyinchalik alu-alu – alla-alla shakllariga o'tgan bo'lishi ehtimoli ko'proq. Qolaversa, tatarlarning beshik jirida hozir ham mavjud bo'lgan "elli-belli, beu-beu, bel-lu-beu" kabi aytilmalar – "balu-balu"dan "alla-alla"ga o'tish bosqichini ifodalashi mumkin. "Balu-balu" ruslarning "bayu-bay"iga ham o'xshab ketadi. Bu so'zdan rus tilida "(u)bayukat", ya'ni "alla aytish" fe'li ham yasalgan. Maks Fasmerning "Etimologicheskiy slovar russkogo yazika" lug'atida



"bayu" va "(u)bayukat" so'zlariga berilgan izoh, bizningcha, qoniqarli emas. Xususan, M.Fasmer mazkur so'zlarni bir o'rinda "gapirish" ma'nosidagi slavyancha "bayat" fe'lidan desa, boshqa o'rinda turkiy "bay" ("boy") bilan aloqador degan fikr bildirgan. Aslida, ruscha "bayu bayushki bayu" ko'proq rus kazaklariga tegishli beshik aytimidir. Ma'lumki, "kazak" ismining o'zi turkiy so'z, "Boburnoma"da ham "qazaq" so'zini ko'p uchratamiz, shuningdek, kazaklar orqali rus tiliga "ataman", "yesaul" ("yasovul"), "kosh", "kuren" ("ko'ch", "ko'ron"), "dombra" ("do'mbira") kabi yuzlab turkiy so'zlar o'tganligi ma'lum. Ehtimol, M.Fasmer "Devonu lug'otit-turk"dagi "balu-balu"dan xabardor bo'lmagandir. Ammo "Devon"dagi ushbu so'z va tatar aytilmlaridagi: "elli-belli, beu-beu, bellu-beu" shakllari ruscha "bayu-bay"ning turkiy o'zakka egaligi ehtimolini ko'chaytiradi. Ba'zan bir tilda yo'qotilgan so'z boshqa tilda yashab qoladi. Aytaylik, "kirpich"("kirpich"), "ötyk"("utyug"), "avya" ("ayva") kabi ko'plab turkiy so'zlar hozir ham rus tilida yashab kelmoqda va "balu-balu" ("bayu-bayu") ham, o'ylaymizki, shunday so'zlar sirasiga kiradi. "Alla" kalimasini aytish bizda qachondan urf bo'lgani ma'lum emas, ammo turli xalqlarda uning turlicha qo'llanishiga ko'ra



hududlarga ajratish mumkin. Aytaylik, O'zbekiston va Tojikiston xalqlari o'rtasida aytiladigan alla ("allayo-alla, alla, bolam (bacham), alla") deyarli bir xil (faqat Tojikistonning ba'zi hududlarida "lalayik" shakli mavjud), ammo turkmanchada "alla" so'zi ortidan "hu" tovushining ham eshitiilishi ("alla hu alla") bizga "Alloh" ismini ham es-

latadi. Umuman, turkiy xalqlarda onalar alani har doim ham so'z bilan aytishmagan, balki ko'pincha allalar "hayya-huv, hiy-uv, hu-viy" kabi tovushlar ishtirokidagi musiqa-dan iborat bo'lgan. Turkmancha "hu" ham shunday tovush bo'lishi mumkin. Ayniqsa, boshqirdlarning beshik jirida bu tovushlar yaqqol ko'zga tashlanadi: "elli (h)u, elli(h) u vuuv, veliyyi-veleyi vay, eveyii-eveyii vey". Ammo Afg'oniston xalqlari, xususan, pushtunlarning allasida ham "alla hu alla" so'zlari takrorlanadi va "Alloh" ismiga yana ham yaqinroq talaffuz etiladi. Demak, Afg'oniston, Turkmaniston hududlarini, shartli ravishda, "alla hu" hududi deb belgilashimiz mumkin. Qozoq va qirg'izlardagi "aldi-ay, aldi" – o'zbekcha "allayo alla"ning qozoq va

seziladi, demak, Eron va Ozarbayjonni bir alla hududiga mansub deyish mumkin. Ammo turk "go'dak allalari" ("bebek ninnilari") farqli ko'rinishga ega. Turk-larda chaqaloq tilidan olingan so'z – ninni – "alla" ma'nosini bildiradi, "dandini dandini danali bebek", deb boshlanadigan turkcha asosiy alla qo'shig'idagi "dandini" esa fransuzcha: "tebratmoq, qo'ng'iroqni ipidan tortib harakatga keltirmoq, dangillatmoq" ma'nosidagi "dandiner" so'zining turkchaga o'zlashgan shaklidir. Bu esa turkcha "dandini" qo'shig'i keyinchalik paydo bo'lganligidan darak beradi. Arablarning an'anaviy allasi: "yal-la binam", ya'ni "qani, uxla" so'zlari bilan boshlanadi. Ammo undagi "yal-la" so'zi arabcha "yo Alloh" ma'nosidagi iborasidanmi yoki "kecha", "kech bo'ldi" ma'nosida arabcha "layl" so'zidan yasalganmi, bu bizga qorong'i. Bizningcha, "alla" so'zi islomdan keyin paydo bo'lgan va "Alloh" ismi zikri bilan aloqador, degan fikr haqiqatga yaqinroq. Ma'lumki, o'tmishda bolalar o'limi nihoyatda ko'p bo'lgan, shu bois farzan-dan sog'lig'ini Allohdan tilagan onalar tilida "Alloh" zikri qo'shiqqa aylangan bo'lishi mumkin. Shuningdek, "alla"ning forschala "lala"ga ham o'xshashligi, ba'zi ovro'po tillari, xususan, ingliz tilida "lalabay" ("lul-laby") deyilishi, barcha holatlarda "i" tovushining ishtiroki va takrorlanib kelishi, ular qadimiy bir arxetipga borib taqalishi mumkin, degan farazga ham olib keladi. Xullas, tilimizdagi "alla" so'zining kelib chiqishida yuqorida keltirilgan dalillarning birortasi yoki hammasining qisman ta'siri bo'lishi mumkin. Nima bo'lishidan qat'i'y nazar, xalq og'zaki ijodining bu turi juda qadim zamon-lardan mavjud bo'lgan va bizgacha yetib kelgan eng birinchi alla – bu bundan to'rt ming yil avval sopolga mixxat etib o'yilgan shumerlarning allasidir.


Abduvohid HAYIT



E'TIROF

NOBEL MUKOFOTI LAUREATINING MIRZO ULUG'BEKKA MAKTUBI

Bu kun buyuk qomusiy olim, Amir Temurning nabirasi, "astronomiya shahzodasi" Mirzo Ulug'bek tavalludining 630 yilligi jahon hamjamiyati tomonidan keng nishonlanmoqda. Ushbu muhim voqea arafasida "Samarkandiana" ensiklopedik loyihasiga dunyoning turli davlatlari tomonidan katta qiziqishlar bildirilaypti.



Shveytsariyalik taniqli astrofizik, fizika bo'yicha Nobel mukofoti sohibi Mishel Mayor Samarqand xalqaro texnologiya universiteti qoshida yangi tashkil etilgan "Inson. Madaniyat. Tinchlik" xalqaro ilmiy va o'quv markazi tomonidan o'tkazilishi rejalashtirilayotgan shu nomdagi xalqaro dasturda qatnashish haqidagi taklifimizni mamnuniat bilan qabul qildi.

U loyihamizga yo'llagan javob xatida shunday yozadi: "Bildiringan tilaklaringiz uchun tashakkur! Bu xabarga shaxsan Ulug'bekka murojaat qilib yozgan maktubimni ilova qilaman. "Samarkandiana" ensiklopedik loyihasi muvaffaqiyatli davom etmoqda, degan umiddaman va barchangizga ezgu tilaklarimni izhor etib qolaman".



Uning bizga yuborgan suratlaridan birida shunday yozuvga ko'zimiz tushadi: **"Mening buyuk va mashhur hamkasbim Mirzo Ulug'bek izidan. Mishel Mayor"**.

Loyihamizning yangi ishtirokchisi haqida biroz to'xtalsak. Mishel Mayor dunyoga dong'i ketgan mashhur olimlardan hisoblanib, u "Quyosh ortidagi dunyo kashfiyotchisi" va "Yulduzlar ovchisi" nomlari bilan tanilgan.

Jeneva universitetining faxriy professori Mishel Mayor xalqaro Astronomiya ittifoqining galaktik tizimning tuzilishi va dinamikasi, quyosh ortidagi sayyoralarni o'rganish borasida tuzilgan hamjamiyatiga rahbarlik qilgan. Bundan tashqari, Yevropa janubiy observatoriya sinining ilmiy-texnika qo'mitasi hamda Astrofizika va astronomiya fanlari bo'yicha Shveytsariya jamiyati rahbari, Jeneva rasadxonasi direktori kabi qator nufuzli lavozimlarda faoliyat yuritgan.

Shuningdek, professor pedagogik va ilmiy-ma'rifiy faoliyatga ham katta e'tibor qaratgan. Aytish mumkinki, uning mukofotlari va unvonlari to'liq sanalsa, aziz o'quvchimizning ko'p vaqtini olishga to'g'ri keladi. Ahamiyatlisi, hatto butun boshli asteroidga uning (125076 Mishelmayor) nomi berilgan. Olim o'zining Nobel ma'ruzasini quyidagicha nomlagan: "Koinotdagi ko'p olamlar: antik davr orzusi, astrofizikaning zamonaviy haqiqati".

1995-yil 6-oktyabrda professor aspirantlaridan biri Dide Quyeloiz bilan hamkorlikda Quyosh tizimidan tashqaridagi birinchi sayyorani – Somon yo'li galaktikasida Quyoshga o'xshash yulduzni aylanib yuruvchi Pegas ekzosayyorasini kashf etdi. Ekzosayyoralar tushunchasi paydo bo'lishiga sabab bo'lgan ushbu inqilobiy kashfiyot uchun har ikkala olim ham Nobel mukofotiga sazovor bo'lgan.

Mashhur "Ziji Ko'ragoniy" asari muallifiga Jenevadan yo'llangan maktubda quyidagi fikrlar bildirilgan:

"Mirzo Ulug'bekka! Sizning hukmronlik qilgan yillaringizda Samarqandda yaratilgan Pegas yulduzlar turkumining tasviri naqad qo'zal! Mening qalbimga judayam yaqin bo'lgan samoviy bu hududda birinchi kashf etilgan ekzosayyora – Pegas 51 joylashgan. Biz osmonni tadqiq etishni chin ko'ngildan yaxshi ko'rgan siz kabi buyuk hamkasbimiz xotirasini qadrlab kelmoqdamiz. Men Siz bilan suhbatlashishni va Siz ijod qilgan davrlardan beri qancha yutuqlarga erishganimiz haqida aytib berishni juda xohlardim.

Mirzo Ulug'bek, koinotni o'rganishimizga qo'shgan benihoya hissangiz uchun Sizga cheksiz ehtiromimni bildiraman.

Mishel Mayor, Jeneva universiteti astronomiya professori, fizika fanlari bo'yicha Nobel mukofoti laureati".

Eslatib o'tamiz: 2022-yilda Samarqand xalqaro texnologiya universiteti tomonidan O'zbekiston Fanlar akademiyasi ishtirokida va "Eriell" kompaniyalar guruhi ko'magida buyuk alloma Mirzo Ulug'bekning "Ziji Ko'ragoniy" asarining nodir nashri tayyorlandi va mazkur asar o'zbek, rus, ingliz va xitoy tillarida nashr etildi.

Anatoliy Ionesov, "Samarkandiana" ensiklopedik loyihasi muallifi. Asila Ibragimova, Samarqand xalqaro texnologiya universiteti matbuot kotibi.

Suratlar Mishel Mayor tomonidan taqdim etilgan.

TARIX VA TAQDIR

Jadidlik harakati tarixi haqida so'z borganda beixtiyor qrimlik Ismoil G'asprali tilga olinadi. Ta'kidlash lozimki, Turkistonning uyg'onish yo'liga chiqishida Ismoil G'asprali tashkil etgan "Tarjimon" (1883-yil 10-aprelda chiqq boshlagan) gazetasining o'rni katta bo'ldi. Uning o'zi 1893 va 1908-yillarda ikki marta Turkistonga sayohat qildi.

Ismoil G'asprali va uning "Tarjimon" gazetasi Turkiston jadidlari, umuman, butun o'lkada jadidlik harakatining shakllanishida muhim ahamiyat kasb etdi. XIX asrning oxiriga kelib G'asprali nafaqat Rossiya imperiyasida, balki Qohiradan Bombeygacha bo'lgan hududlarda jadidlik g'oyalarining yoyilishiga katta ta'sir o'tkazgan shaxsga aylangan edi.

U Turkiston jadidlarining barcha ishlarida ma'naviy ustoz vazifasini bajardi. Chunonchi, "Tarjimon"da Turkistonga alohida e'tibor qaratdi. Dastlab gazetada faqat rasmiy nashrlardan olingan xabar va ularga o'zi yozgan sharhlar bilan chegaralangan bo'lsa, keyinchalik bu ishga bevosita turkistonliklarni jalb qilishga kirishdi. Gazetaning 1885-yilgi sonlarida Turkiston harbiy kampaniyasida ishtirok etgan general A.Kuropatkinning (1848-1925) o'lkani zabt etilishi bilan bog'liq xotiralarini chop etdi va alohida kitobcha shaklida nashrdan chiqardi.

G'asprali Turkistonga safari oldidan "Tarjimon"da o'lka hayoti, tarixi va geografiyasiga oid turkum maqolalar beradi. Ayniqsa, uning Buxoro amirligi haqidagi maqolalari ma'lumotlarga boy edi. Muallif Buxoroning buyuk o'tmishi, madrasalari va hukmdorlari borasida qiziqarli faktlarni keltiradi. 1893-yilning fevral oyida Buxoro amiri Abdulahadxon Sankt-Peterburg safaridan qaytishda Bog'chasaroyga keladi. Yuqori martabali mehmonni kutib oluvchilar qatorida Ismoil G'asprali ham bor edi. Bu ikki shaxs 1883-yildan e'tiboran g'oyibona tanish edilar. O'sha paytda valiahd bo'lgan Abdulahadxon G'aspraliga "Tarjimon" gazetasiga obuna bo'lish istagi bitilgan telegramma yo'llagan edi. Oradan o'n yil o'tib, ular yuzma-yuz ko'rishdilar. Abdulahadxon uni rasman Buxoroga taklif qildi. Keyinchalik bu taklif Ismoilbey ancha vaqtdan beri rejalashtirib kelayotgan safariga katta turtki berganini yozadi.

Atoqli ma'riftparvar Turkistonga birinchi sayohatini 1893-yil may oyida boshlaydi. Bu safardan ko'zlangan maqsad, G'aspralining yozishicha, Turkistonning haqiqiy tarixi va o'sha davrdagi ahvoli bilan yaqindan tanishish bo'lgan. Safar davomida u mahalliy musulmon ziyolilari orasidan o'ziga maslakdoshlar topish, "Tarjimon"ni o'lkada keng targ'ib qilish va yangi obunachilarga ega bo'lish hamda yangi usuldagi maktab ochishni ham rejalashtirdi. Safardan so'ng "Tarjimon" sahifalarida e'lon qilingan sayohatnomalarida G'asprali Turkistondagi uchrashuvlari, suhbatlari haqida batafsil ma'lumot bermaydi va buni gazeta imkoniyatlari cheklanganligi bilan izohlaydi. Shunday bo'lsa-da, aytish joizki, uning Turkistonga safaridan ko'zlangan asosiy maqsadi rus va mahalliy amaldorlarni yangi usul maktabi ishiga jalb qilish bo'lgan.

G'asprali Buxoroda dastlab Rossiya siyosiy agentligi ma'murlari bilan uchrashib, tashrifining maqsadini bildiradi. Mehmonning rasmiy tashrif bilan kelgani haqida darhol Buxoro amiri devonxonasiga xabar qilinadi. Shundan so'ng u Qushbegi bilan ko'rishadi va yuqori martabali mehmonlarga hozirlangan qarorgohga joylashtiriladi. Amir Abdulahadxon bu payt Shahrisabzda edi, shu bois G'asprali u bilan ko'rishma olmaydi. Sayohatining yakunida Shahrisabzga tashrif buyuradi va u yerda amir bilan ko'rishadi. Qushbegi yordamida Buxoroning boshqa yuqori martabali amaldorlari: Devonbegi va Qozikalon bilan uchrashadi. Bu paytda Buxoroning

barcha ta'lim muassasalari Qozikalon tasarrufida edi. G'asprali imkoniyatdan foydalanib, Qozikalonni ta'limning yangi usuli bilan batafsil tanishtiradi va o'zining "Xojayi sibyon" (Bolalar o'qituvchisi) darsligini taqdim qiladi. Qozikalon yangi ta'lim usuli juda samarali va foydali ekanini ma'qullaydi.

Buxoroda maktab va madrasalar bilan tanishgan G'asprali o'quvchi va talabalar bilan suhbatlashadi va to'rt kun Buxoroda bo'lgach, Samarqandga yo'l oladi. Samarqandda ham birinchi galda, rus ma'muriyati bilan uchrashadi. Uni Samarqand harbiy gubernatori graf Ros-tovsev qabul qiladi. Gubernator bilan bo'lgan yarim soatlik uchrashuv chog'ida o'zini qiziqtirgan barcha masalalarda suhbatlashib ulguradi. Suhbatdan ta'sirlangan gubernator "Tarjimon"ga obuna bo'lish istagini bildiradi va unga maktablar haqida batafsil ma'lumot olish uchun shahardagi rus-tuzem maktabi o'qituvchisi bilan uchrashishni maslahat beradi. Maktablarda yozgi ta'til bo'lgani sababli gubernator aytgan muallimni topa olmaydi. To'rt kun davomida Samarqandning ruslar va mahalliy aholi yashaydigan qismlari bilan tanishadi va Samarqand safaridan ko'zlangan asosiy maqsadlardan biri – yangi maktab ochishga muvaffaq bo'ladi. Turkiston musulmonlari uchun ochilgan bu birinchi jadid maktabi, norasmiy tarzda ochilganiga qaramay, tez orada xalq e'tiborini qozonadi.

Samarqanddan so'ng G'asprali Turkistonning bosh shahri – Toshkentga tashrif buyuradi. Buxoro va Samarqanddan farqli o'laroq, bu shaharga kelishi bilan rus ma'murlari huzuriga bormaydi. Uni Toshkentda mahalliy ziyolilar kutayotgan edi. G'aspralini Toshkentning mashhur qozilaridan Muhyiddinxo'ja kutib oladi va uyiga taklif qiladi. O'sha kuni Muhyiddinxo'ja xonadoniga Toshkentning ko'zga ko'ringan musulmon ziyolilarini yig'ib, mehmon sharafiga ziyofat beradi. G'asprali Toshkentda shunday bir ziyoli jamoani ko'radiki, bu uning Turkiston haqidagi tasavvurlarini tubdan o'zgartirib yuboradi va rus matbuotda turkistonliklarni "savodsiz va johil", deya bog' urayotgan xabar va ma'lumotlar asossizligiga amin bo'ladi. Shu bois u Toshkentda olti kun qolib ketadi.

Toshkentda G'asprali Turkiston general-gubernatori baron A.Vrevskiy hamda o'lka ta'lim tizimiga mas'ul shaxslardan biri N.Ostroumov bilan uchrashadi. Bu uchrashuvlar tafsiloti bizga noma'lum. Samarqand bo'lsa-da, G'aspralini birinchi navbatda 1892-yili Turkiston general-gubernatoriga ta'lim sohasida amalga oshirilishi mumkin bo'lgan is-



TURKISTONDAN RUHIY MADAD OLGAN JADID

lohotlar haqida fikrlarini bayon qilgan maktubining taqdiri qiziqtirgani shubhasiz. Bu masala N.Ostroumov bilan muhokama qilingani ehtimoli ko'proq. U Ostroumovni 1880-yillardayoq tanigan va o'lka ta'lim tizimiga katta ta'sir o'tkazadigan shaxsligini yaxshi bilardi. Ostroumov bilan yangi usul maktablari borasida suhbatlashib, Samarqandda ochilgan maktabning rasman ro'yxatdan o'tkazilishiga yordam berishini iltimos qiladi. Lekin Ostroumov va'dalari ustidan chiqmagan.

G'asprali Toshkentdan yana Samarqandga qaytadi. Samarqandda uni Shahrisabzga olib borish uchun amir yuborgan odamlar kutib turgan edi. Ayni shu paytda Samarqandga yetib kelgan taniqli pedagog, bokulik Majid G'anizoda unga hamroh bo'ladi. Majid G'anizoda G'aspralining iltimosiga binoan Samarqandda 40 kun qolib, yangi ochilgan usuli jadid maktabida dars berish bilan birga, mahalliy muallimga yangi metodika asoslarini ham o'rgatadi.

G'asprali Shahrisabzga Qurbon hayiti arafasida yetib keladi va Abdulahadxon bilan bayram namozidan so'ng ko'rishishga muvaffaq bo'ladi. Ularning ko'rishishi rasmiy tarzda bo'lib, 15 daqiqagina davom etadi. O'sha kuni tushdan keyin ular batafsil suhbatlashish imkoniga ega bo'ladi. Suhbat chog'ida G'asprali Buxoroda yangi usul maktabi ochish masalasini o'rtaga qo'yadi. Chunki Abdulahadxon u bilan Bog'chasaroyda ko'rishgan vaqtida Buxoroda yangi usul maktabi ochishga va'da bergan edi. Ammo amir va'dasining ustidan chiqmaydi.

Abdulahadxonning jur'atsizligi va qat'i'yatsizligidan G'asprali ranjib, ertasi-gayoq Qrimga jo'nab ketgan bo'lsa-da, amirga munosabatini o'zgartirmadi. Ular 1910-yilgacha, ya'ni Abdulahadxonning vafotiga qadar deyarli har yili Bog'chasaroy va Yaltada ko'rishib turishgan. Amir yilda bir marta dam olish va davanlash uchun Qrimdagi qarorgohiga borar edi.

G'aspralining Turkistonga ikkinchi sayohati 1908-yilga to'g'ri keldi. Bu galgi safar oldingisidan butunlay farq qiladi. Masalaning mohiyatini yaxshiroq anglash uchun mavzudan biroz chetlashishimizga to'g'ri keladi. 1905-yil oktyabrda oq podshoh tomonidan e'lon qilingan Manifestdan so'ng Rossiyadagi musulmon jamiyatida yangi yo'lbo-shchilar, yangi g'oyalar va oqimlar paydo bo'ldi. Ayni shu vaqtga kelib liberal pozitsiyada turuvchi G'aspralining mavqei biroz e'tibordan tusha boshladi. Chunki yangi yo'lbo-shchilar chor hukumatining oldiga aniq siyosiy talablar qo'yish, Manifest bilan berilgan erkinliklardan ko'proq manfaatga ega bo'lishga davt

qila boshladilar. G'asprali bu kabi tezkor harakatlarni umuman ma'qullamadi va birdan katta siyosiy talablar bilan chiqishga u qarshi edi. Bu esa, o'z navbatida, uning siyosiy mavqeiga ta'sir etmay qolmadi. Abdurashid Ibrohimov boshchiligidagi federalchi musulmonlar yashaydigan hududlarga muxtoriyat maqomi berilishi tarafdorlari sifatida o'rtaga chiqdi. G'asprali va Ibrohimov o'rtasida katta siyosiy kelishmovchilik paydo bo'ldi va ular bir-biriga qarshi harakat qila boshladilar. Musulmon jamoasi orasida siyosiy bo'linish yuz berdi. Shundan so'ng, G'aspralining o'zi yozishicha, musulmonlar orasida bo'layotgan barcha narsalardan ko'ngli "sovigan".

1908-yil avvalida u yangidan, 1905 – 1907-yillar oralig'ida bo'lib o'tgan siyosiy jarayonlardan keskin farq qiladigan siyosiy ish boshlash harakatiga tushdi. Ayni shu vaqt u o'zining uzoq yillar davom etgan pedagog sifatidagi faoliyatini tugaganini va faoliyatining ikkinchi, yanada shiddatli, kuchli siyosiy davri boshlanganini e'lon qiladi. Yangi siyosiy faoliyatga kirishar ekan, "Tarjimon"ni ham sof siyosiy dastakka aylantirish fikriga keladi.

G'asprali bu ishlarni amalga oshirish uchun madad qidiradi va Rossiyaning musulmonlar yashaydigan hududlariga ikki oylik safar uyushtirishni rejalashtiradi. 1908-yilgi Turkiston sayohatidan ham u ko'mak izlashni maqsad qilgan edi. Ikkinchi sayohati birinchisidan aynan shu jihati bilan farq qiladi.

Buxoro amiri bilan bo'lgan uchrashuvi juda qisqa bo'lib, rasmiyatchilikdan nariga o'tmagani bois G'asprali Abdulahadxonning biron narsani amalga oshirishiga umid ham qilmay qo'ygani edi. O'z yozuvlarida u Buxoro hukumatining ichki siyosatini qattiq tanqid ostiga oladi: "Agar ish shu tariqa davom etsa, shak-shubhasiz Buxoro yaqin orada Turkiston general-gubernatorligining bir viloyatiga aylantiriladi".

O'zbek jadid ziyolilari Ismoil G'asprali g'oyalaridan ilhom olgani, uni ustoz sanagani, xususan, Bog'chasaroyda nashr etilgan "Tarjimon" gazetasini doimiy ravishda o'qib, o'zlarining turmush tarziga nazar tashlaganlari tarixiy haqiqat. U zamonlarda Bog'chasaroy barcha turkiy xalqlar talpinadigan, fikr va g'oya oladigan tabarruk tafakkur maskani bo'lgani rost.

Zaynobidin ABDIRASHIDOV, filologiya fanlari doktori, Anqaradagi Hoji Bayram Vali universiteti professori

TARMOQLARDA NIMA GAP?

Albatta o'qing. Judayam qiziq.

Har kuni kamida bitta samolyot to'la odam Umruga uchadi. 300 ta o'zbek. Har birining yonida kamida 2,5-3 ming dollardan ziyoratga atalgan pul ketyapti.

750-900 ming dollar pul O'zbekistondan qaytmis bo'lib chiqib ketadi. Har kuni!

Bu bitta zo'r, hamma sharoiti bor, hatto amerikaliklar ko'rsa havas qiladigan ZAMONAVIY MAKTAB degani! Bir oyda 30 ta maktab.

Bir yilda 360 ta maktab.

O'n yilda 3600 ta maktab.

Agar shu pullar rostdan ham millat bolalariga sarflansa, nima bo'lishini bir ko'z oldingizga keltiring-a! Dunyo o'zbeklarniki bo'ladi! O'zbeklar ilm-fan, taraqqiyot bilan dunyoni zabt etadi-ya!

Afsuski, o'zbek degani 2-3 ming dollarlab pulni sunnat bo'lgan ziyoratga sarflaydi, lekin farzandlari

uchun 100 dollarlik kitoblar sotib olmaydi hech qachon!

Agar o'sha 2-3 ming dollarga kitob olsa, qancha kitob bo'ladi? Bitta katta zal to'la kitob bo'ladi! Bunday kutubxonasi bor xonadonda o'sgan avlodlar qanday inson bo'lib yetishadi?

Bu narsani afsuski, hech kim xayoliga ham keltirmaydi...

30-40 yil oldin hayot qanday edi? Uylar ham quirlardi, to'ylar ham qilinardi, farzandlar hammasi sportga, to'garaklarga qatnashardi, kasal bo'lsa, darhol davolanishardi, tish qo'ydirishardi, va eng muhimi, har bir xonadonga qanchalab gazeta, jurnallar kirib kelardi har kuni!

Kitob javoni yo'q xonadon deyarli qolmas edi! Hamma o'qir edi, bilim olar edi.

TANAZZULNING BOSHLANG'ICH NUQTASI

Mardikorlar, fohishalar, gadoylar, qalloblar yo'q edi! Odamlar ma'nili, tarbiyali, madaniyatli, qalban pok, to'g'ri, halol edilar. "Falonchi ajrashibdi" degan gapni eshitib qolish sensatsiya edi.

Demak, hamma balo odamlarning o'zida ekan. Kitob o'qimay qo'yishdan boshlandi bu ortga ketish, deb o'ylayman. Degradatsiyaning boshlang'ich nuqtasi shu bo'ladi.

Kitob o'qimagan odam muhimni nomuhimdan, oqni qoradan, yaxshini yomondan, rostni yolg'ondan, to'g'rini xatodan ajrata olmay qoladi. Zalolatga qanday botib ketayotganini ham anglamay qoladi.

Biz Qur'onda Allohning odamzotga aytgan eng birinchi buyrug'ini unutib qo'ydik!

"Iqro! Iqro! Iqro!"

"O'q! O'q! O'q!"

Shorahmat QURBONOV

"Fecobook"



ABDULLA QODIRIY TAVALLUDINING 130 YILLIGI

YUSUFBEK HOJINING MARTABASI

Badiiy asar mukammal bo'lsa, unda boqiy so'z egasining pokiza tuyg'ulari samimiy tarannum etilsa, nafosatga tashna ilm-ma'rifat ahli har vaqt bunday asarga qayta-qayta murojaat qilaveradi. **Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar"** romani shunday – doimiy murojaatga munosib durдона asardir.

Bir asrdan beri qodiriyshunoslar bu roman haqida juda qimmatli adabiy talqinlar va maqolalar yozishdi. Bir tomondan qaraganda, roman hajmdan bir necha bor ko'p ilmiy talqinlarda go'yo hamma mulohaza aytilgandek ko'rinadi. Biroq "O'tkan kunlar"ning hayotiyligi, badiiy jozibasi romanni nafaqat yillar va asrlar sinovidan, balki turli noo'rin tanqidlar suronidan ham eson-omon olib chiqaveradi. Bu jihatdan romandagi obrazlar juda muhim sanaladi.



"O'tkan kunlar" romanidagi Yusufbek hoji aynan hojiligi e'tibori bilan yuksak martabaga ega qahramondir. U maishiy va ijtimoiy jihatdan aql-zakovati, fahm-farosati, go'zal odobi, muomala-munosabati, qo'yingki, barcha fazilatlari bilan boshqalardan ajralib turadi. Bu siymo tal'atidan taralgan yog'du butun romanga oydinlik bag'ishlaydi.

Hojilik sifati Yusufbek ibn Musobekning din arkonlarini to'kis ado etguvchi halol-pokiza bir inson ekanini anglatadi. U umrining shomi yaqinligini, hisob-kitob fursati kelishini yurak-yurakdan his qiladi. Shu bois Yusufbek hojining farzandi haqidagi o'yida: "Parvardigor, keksaygan kunlarimda dog'ini ko'rsatma", degan muhojotlari o'ta tabiiy eshitiladi. Shuningdek, soliq yig'ish masalasida egniga kimxob chopon yopilgan hoji xalqqa qilinayotgan jabr-zulmni ko'rib, qonxo'rlik va zulmga rozi emasligini: "Men qonxo'rlik uchun Xudoning farz qilg'an hajini ado qilmadim: oldimda o'g'lim bor, menda boshqalarning o'g'lini darraga yotqizish chog'ida ko'ndalang keladigan vijdon bor, din bor, diyonat bor", deya bayon qiladi. Komil inson qiyofasidagi bu qahramon xalqqa ham, o'z e'tiqodiga ham xiyonat etishni istamaydi. Zero, "...xalq Yusufbek hojidan bir zarra yomonlik yoki bo'lmag'ur bir kengash eshitmagan". Dushmanlar ham uning aynan mansab borasida "nihoyatda tamasiz", "xalq manfaatini kuzatkuvchi bir odam ekanini" e'tirof etadi.

Romanning birinchi bo'limida bu shaxs ijtimoiy faoliyatdagi inson qiyofasida berilsa, ikkinchi bo'limda oila ichida tasvirlanadi, uchinchi bo'limda esa shu ikki muhit uyg'unligida harakat qilgani kuzatiladi. Shuni alohida ta'kidlash joizki, romanda u qatnashgan sahnalar ko'p emas. Ammo Yusufbek siymosining ma'naviy quvvati romandagi boshqa qahramonlarni o'z aurasiga (qabati)ga tortadi. Hoji qatnashmagan sahnalarda ham uning o'tkir nigohi seziladi: voqelikda rostlik hukmronlik qiladi. Bu qahramonning sabab bor: oz gapiradi, ko'p eshitadi, kal buladi, ko'ngilchan – musibatdan ko'zi yoshlanadi.

"Yusufbek hojining qiziq bir tabiati bor: xotini bilangina emas, umuman, uy ichisi bilan har qanday masala ustida bo'lsa bo'lsin uzoq so'zlashib o'tirmaydi... Hoji

bir necha vaqt so'zlaguchini o'z og'ziga tikiltirib o'tturg'andan so'ng, agar ma'qul tushsa "xo'b" deydir, gapga tushunmagan bo'lsa "xo'sh" deydir, noma'qul bo'lsa



"durust emas" deydir va juda ham o'ziga noma'qul gap bo'lsa bir iljayish bilan ki-foyalanib, munda boshqa so'z aytmaydir va aytsha ham uch-to'rt kalimadan nariga oshmaydir." Ikkinchi bo'limning "Ota-ona orzus" faslida romannavis hoji tabiatiga xos ana shunday individual chizgilar bilan qahramon salobatini o'tirtiradi.

Yusufbek hoji – yirik shaxs. U o'zaro mahalliy ziddiyatlarning zararini yaxshi biladi, qipchoqni qirishni qoralaydi, aksincha, ularni "chin yovg'a beriladigan kuch" sifatida ittifoqchi sanaydi. Noo'rin isyonga otlanayotgan olomonga qaratadi: "...Biz qipchoqqa qilich ko'targanda, o'ris bizga to'p o'qlaydir. Siz dunyoda o'zingizning yagona dushmaningiz qilib qipchoqni ko'rsangiz, men boshqa yovni har zamon o'z yaqinimga yetgan ko'raman", degan so'zlarni aytadi. Biroq hojining istagiga qarshi, qirg'in ro'y beradi. Ustiga ustak, Otabek ham otasining bu ishda qo'li borligidan shubhalanib, hojining ko'ngliga ozor yetkazadi. Yusufbek hojining o'zini oqlab masalalarining tub mohiyatini tushuntirgandan so'ng aytgan quyidagi gapi bu shaxsning chindan ham ulug'ligini yaqqol ko'rsatadi. "Men ko'b umrimni shu yurtning tinchligi va fuqaroning osoyishi uchun sarf qilib, o'zingma azobdan boshqa hech bir qanoat hosil qila olmadim. Ittifoqni ne el ekanini bilmagan, yolg'iz o'z manfaatini o'ylab, shaxsiyasi

yo'lida bir-birini yeb ichkan mansabparast, dunyoparast va shuhratparast muttahamlar Turkiston tuprog'idan yo'qolmay turib, bizning odam bo'lishimizg'a aqlim yetmay qoldi... O'z naslini o'z qo'li bilan ko'fir qo'lig'a tutqin qilib topshirg'uvchi – biz ko'r va aqlsiz otalarg'a Xudoning la'nat, albatta, tushar, o'g'lim! Bobolarning muqaddas gavdasi madfun Turkistonimizni to'ng'uzxona qilishg'a hozirlang'an biz itlar Yaratg'uvchining qahriga, albatta, yo'liqarmiz! Temur ko'ragon kabi dohiylarning, Mirzo Bobur kabi fothilarning, Forobiy, Ulug'bek va Ali Sino kabi olimlarning o'sib-ungan va nash'-u namo qilg'onlari bir o'lkani halokat chuquriga qarab sudraguvchi, albatta, Tangrining qahriga sazovordir, o'g'lim! Gunohsiz bechoralarni bo'g'izlab, bolalarni yetim, xonalarni vayron qilguvchi zolimlar qurtlar va qushlar, yerdan o'sib chiqq'an g'oyhlar qarq'ishiga nishonadir, o'g'lim!..."



Ota va o'g'il suhbatlari jarayonida aytilgan bu gaplar katta ijtimoiy mohiyatga ega. Hojining bu masalalarda o'z qarashi, o'z gapi bor. Shuning uchun uning gaplari Otabekni "uyalg'annamo yerga" qarashga majbur etadi. Yoki boshqa epizodlarda aynan Yusufbek hojining adl nazari ba'zan O'zbek o'ymini gangitsa, ba'zan "nur ichiga cho'milgandek bo'lib ko'ringan siymosi", "oyim deb xitob" qilishlari, "beozor va muassir so'zi" Kumushning "qayin otamni o'z dadamdan ham yaxshi ko'raman", degan xolis e'tirofiga sabab bo'ladi.

Yozuvchi tasvirlagan bir majlis-ziyofatda Yusufbek hoji Yunus Muhammad oxund Rasululloh (sallallohu alayhi vassalam) ning "Iza vasadal amru ila g'ayri ahlihi fantazir as-soata" (ya'ni, agar bir qavmning ishi noahl odamg'a topshirilg'an bo'lsa, bas, o'shal qavmning qiyomatini yaqin bil), degan hadisni eshitib: "Voy bo'lsin biz badbaxtlar holig'a", deydi. "Bu soqol shu el qayg'usida oqardi. Bu ko'ngil shu manfaatparastlar ta'sirida qoraydi. Yoshim oltmish beshka yetib bir vaqt bo'lsin ibodatimni janobi Haqqa bevosita yo'naltirg'animni va ko'ngil ko'zim ochilib qilg'on sajdamni xotirlay olmayman. Bu aldanishim ersa, Haq tarafidan bir tanbeh, bo'lmag'anlarga bo'lishmoqchi bo'lg'onim uchun bir kinoyadir. Endi munda keyingi besh kunlik umrim dunyo mojarolaridan etak silkib

to'sha'i oxirat tadorikini qilmog'im uchun g'animat ko'rinadir". Bu tarzda o'zini o'zi tergash, ruhiy muloqot – ibodatlardan qoniqmaslik, o'ziga malomat qilish, hayotiy tajriba va hikmatlardan to'g'ri xulosalar chiqarish – faqat Yusufbek hoji tabiatigagina xosdir. Zotan, u butun inson, ma'rifati, ma'naviyati yuksak shaxsdir.

Shu o'rinda muhim bir fikrni aytib o'tish o'rindir. Yozuvchi Yusufbek hoji rutbasini muayyan poetik ishoralar, ramzlar vositasida baland maqomga ko'taradi. Uni bir o'rinda chin dildan Qur'on va "Daloyil" mutolaasiga berilgan kishi sifatida tasvirlaydi. Romanning boshqa bir sahifasida hoji Kumushning ko'zi yorishi arafasida ham "xursand va xafaligi noma'lum" bir qiyofada "Daloyil" o'qib o'tiradi. Bugungi ma'rifatlilik o'quvchiga Qur'onni karimning mazmun-mohiyati haqida so'zlab berishga hojat yo'q. Biroq Abdulla Qodiriy asarlarida tez-tez tilga olinadigan "Daloyil" xususida esa ikki og'iz so'z aytish joiz.

Asrimiz avvalida Qozon matbaaxonalarida bosilgan va yurtimiz ziyollari orasida mashhur bo'lgan "Daloyil ul-xayrot" muallifi Muhammad ibn Sulaymon Jazuliy ismli kishidir. Kitob yozilishining qiziq bir tarixi va uni o'qish sharti hamda odoblari bor. Birinchidan, komil bir mashoyixdan izn lozim. Ikkinchidan, uni o'qiydigan kishi yeyish-ichish, savdo-sotiq kabi amallarda haromdan hazar etishi shart. Uchinchidan, o'zi ham, kiyim-kechagi ham pok bo'lib, uni o'qishda xatoga yo'l qo'ymasligi kerak. To'rtinchidan, tajvid (to'g'ri talaffuz) qoidalariga amal etsin hamda o'qilayotgan duo va tasbehlarning ma'nosini imkoni boricha bilsin... Tasavvurimizcha, shu kabi barcha talablarga Yusufbek hoji komil bir inson sifatida to'la-to'kis amal qilgan, albatta. Aks holda, duolar, tasbeh va salovatlardan tarkib topgan "Daloyil"ni o'qishga Yusufbek hoji jazm etmagan bo'lar edi.

Abdulla Qodiriy bunday mo'tabar kitoblar qadr-qimmatini yaxshi bilgan. Demak, kitob mazmuni zamiriga yashiringan sir-sinoatni, umummohiyatni anglab olish o'quvchi ko'zi o'ngida "Daloyil" o'qiyotgan Yusufbek hoji siymosi yana serfaziilat, ma'naviy-ruhiy dunyosi yanada boy qilib ko'rsatiladi. Chunonchi, Abdulla Qodiriy asarlarida mashhur kitoblar vositasida qahramonlarni yetiltirish, o'sha ramz va ishoralar yordamida ularni tavsiflash usuli muhim estetik hodisadir. Masalan, adib Anvar va Ra'nodek jiddiy, Kalvak mahzumga o'xshash hajviy qahramonlari ma'naviy dunyosini ham kitoblarga daxldor holda ko'rsatadi. "O'tkan kunlar"da esa, Otabek "Boburnoma" o'qiydi, Fuzuliy yoxshi kitobni varaqlaydi; Kumush: "Fuzuliy yaxshi kirol", deydi. Yusufbek hoji Qur'on va "Daloyil" mutolaasi bilan mashg'ul bo'ladi.

Xullas, XX asr o'zbek adabiyoti xazinasiyining noyob javohirlaridan biri bo'lmish "O'tkan kunlar"dek hodisani milliy, umuminsoniy, badiiy-estetik jihatdan jahon adabiyoti mezonlari asosida tadqiq etish, qayta o'qish, qayta baholash – bu bardavom jarayondir.

Bahodir KARIM

XOTIRA AZIZ

(Davomi. Boshlanishi o'tgan sonlarda).

Muhsimov Nuriddin – 1906-yili Toshkent shahrida tug'ilgan. "Milliy ittihad" tashkiloti a'zosi, sobiq quloq, hibsga olingan vaqtda aniq mashg'uloti bo'lmagan. Aholi orasida aksilinqilobiy, millatchilik targ'iboti olib borganlikda, xalqlar dohiysi sha'niga tuhmat fikrlar aytganlikda, avvalgi xizmat joyida 12 ming so'm kamomad qilganlikda ayblangan. 1937-yil 25-oktyabrda O'zSSR IIXK Oltiariq rayoni okrugi taqdim etgan 4477-sonli ish bo'yicha otuvga hukm etilgan.

Hasanov Toji Ahmad – 1891-yili To'raqo'rg'on rayoni To'raqo'rg'on qishlog'ida tug'ilgan. 1933-yili aksilinqilobiy faoliyati uchun qamalgan. "Milliy ittihad" aksilinqilobiy tashkilotining a'zosi. Hibsga olingan vaqtda o'qituvchi bo'lib ishlagan. 3357-sonli ish bo'yicha 10 yil mehnat tuzatuv lageriga hukm etilgan. Jazo muddati 1937-yil 22-avgustdan hisoblangan. O'quvchilarga noto'g'ri ta'lim berganlikda va davlatga qarashli katta miqdordagi pulni sarflab yuborganlikda, xalq dushmanlarini maqtaganlikda ayblangan.

QATAG'ON QURBONLARI

Turdiyev Soli Maxsum – 1900-yili Uychi rayoni, Erkato'y qishlog'ida tug'ilgan, sobiq quloq. 1935-yili zararkunandaligi uchun 5 yilga qamalgan. Hibsga olingan vaqtda tayyorlov punktida qabul qiluvchi bo'lib ishlagan. Aholi orasida millatchilik targ'iboti olib borganlikda, "Milliy ittihad" tashkiloti rahbarlari bilan aloqa qilganlikda ayblangan. 12546-sonli ish bo'yicha 10 yil mehnat tuzatuv lageriga hukm etilgan. Jazo muddati 1937-yil 1-oktyabrdan hisoblangan.

Botirov Nishon – 1900-yili Pop rayoni Sang qishlog'ida tug'ilgan. "Milliy ittihad" tashkiloti a'zosi bo'lgan. Hibsga olingan vaqtda kolxoz raisi lavozimida ishlagan. Doimiy ravishda kolxozchilar orasida kolxoz qurilishiga qarshi aksilinqilobiy targ'ibot olib borganlikda, ocharchilik va urush to'g'risida mish-mishlar tarqatganlikda, quloqlarga ko'maklashganlikda, kambag'allarni kamsitib kolxozlardan chiqib ketishga majbur qilganlikda, kolxoz mulkini o'g'irlaganlikda ayblangan. IIXK Pop rayoni okrugi taqdim qilgan 4978-sonli ish bo'yicha 10 yil mehnat tuzatuv lageriga hukm etilgan. Jazo muddati 1937-yil 19-sentyabrdan hisoblangan.

G'oipov Mulla Haydar – 1879-yili Pop rayoni Xojiobod qishlog'ida tug'ilgan. "Sho'royi Islom" tashkiloti a'zosi, sobiq bosmachi, hibsga olingan vaqtda kolxoz a'zosi bo'lgan. Kolxozchilar orasida aksilinqilobiy targ'ibot olib borganlikda, revolyutsiyadan oldingi tuzumni maqtaganlikda, qo'poruvchilik maqsadida tayyorlov punktiga o't qo'yganlikda ayblangan. 3339-sonli ish bo'yicha 10 yil mehnat tuzatuv lageriga hukm etilgan. Jazo muddati 1937-yil 18-sentyabrdan hisoblangan.

Abduļayev Haydar Ali – 1900-yili Pop rayoni Uyg'ar qishlog'ida tug'ilgan. Qatag'ondan yashiringan, hibsga olingan paytda kolxoz a'zosi bo'lgan. "Sho'royi Islom" tashkiloti a'zosi sifatida kolxozchilar orasida doimiy ravishda ig'vogarlik, buzg'unchilik olib borganlikda ayblangan. 4938-sonli ish bo'yicha otuvga hukm etilgan.

Ibrohimxo'jayev Hoshimxo'ja (Xo'jayev Hoshim Ibrohimovich) – 1896-yili Namangan shahrida tug'ilgan. "Milliy ittihad" tashkilotining sobiq a'zosi. Hibsga olingan vaqtda Yangiqo'rg'on rayon gazetasiida tarjimon bo'lib ishlagan. "Milliy ittihad" tashkilotining yig'inlarida ishtirok etganlikda, doimiy ravishda kolxozchilar orasida aksilinqilobiy targ'ibot olib borganlikda ayblangan. 3421-sonli ish bo'yicha 10 yil mehnat tuzatuv lageriga hukm etilgan. Jazo muddati 1937-yil 23-avgustdan hisoblangan.

Qosimov Abdujabbor – 1897-yili Andijon shahrida tug'ilgan. "Milliy ittihad" aksilinqilobiy tashkiloti a'zosi. Hibsga olingan vaqtda qishloq soveti kotibi bo'lib ishlagan. 3417-sonli ish bo'yicha 10 yil mehnat tuzatuv lageriga hukm etilgan. Jazo muddati 1937-yil 23-avgustdan hisoblangan.

Qosimov Toshtemir – 1901-yili Namangan shahrida tug'ilgan. "Milliy ittihad" aksilinqilobiy tashkiloti a'zosi. Hibsga olingan vaqtda aniq mashg'uloti bo'lmagan. Kolxozchilar orasida doimiy ravishda partiya va hukumat tadbirlariga qarshi qaratilgan aksilinqilobiy targ'ibot olib borganlikda, xalq dushmanlarini maqtaganlikda ayblangan. 3433-sonli ish bo'yicha 10 yil mehnat tuzatuv lageriga hukm etilgan. Jazo muddati 1937-yil 24-avgustdan hisoblangan.

Vahobov Zafar – 1891-yili Uychi rayoni Axsa qishlog'ida tug'ilgan. Quloqqa tortilgan, sudlangan, hibsga olingan vaqtda mudir bo'lgan. "Milliy ittihad" aksilinqilobiy tashkiloti a'zosi bilan aloqa o'rnatganlikda, kollektivlashtirishga qarshi ommaviy chiqishlar qilganlikda ayblangan. O'zSSR IIXK Uychi rayon okrugi taqdim qilgan 4946-sonli ish bo'yicha otuvga hukm etilgan.

Rustambek SHAMSUTDINOV,
tarix fanlari doktori,
professor,
Nigoraxon AKBAROVA,
ilmiy xodim
(Davomi kelgusi sonda).

YURT QAYG'USI

Tarixdan ma'lumki, buyuk jadid bobolarimiz o'z zamonasining fidoiysi, bo'lg'usi ozod jamiyatga faol targ'ibotchisi bo'lishlari barobarida, yosh avlod uchun ibrat namunasidir. Ana shunday jadidlarning yorqin namoyandasi, shubhasiz, Mahmudxo'ja Behbudiy sanaladi.

Taniqli jadidshunos olim Begali Qosimov o'z davrida jadid bobomizni shunday tasvirlagan edi: "Mahmudxo'ja Behbudiy XX asr bo'sag'asidagi Turkistonning orzu-armonlaridan biri sifatida maydonga keldi. U o'z davrining ijtimoiy-siyosiy harakatlari faol qatnashgan eng yirik namoyandasi, yangi zamon o'zbek madaniyatining asoschisi edi. Turkiston jadidlarining tan olingan rahnamosi, mustaqil jumhuriyat g'oyasining yalovbardori, yangi maktab g'oyasining nazariyotchisi va amaliyotchisi, o'zbek dramachiligini boshlab bergan birinchi dramaturg, teatrchi, noshir, jurnalist edi".

Ma'rifati oilada voyaga yetgan, davrning yetakchi ziyolilaridan tahsil olgan, aql-zakovatda benazir Behbudiy, avvalo, ilm-ma'rifatni chuqur o'rgandi, ko'p yurtlarga sayohat qildi, har bir millat taraqqiyotiga xizmat qilishi mumkin bo'lgan omillarga daqiq nazar

MAHMUDXO'JA BEHBUDIYNING YOSH AVLODGA MUROJAATI

tashladi. Ko'rgan-bilganlarini har tomonlama tahlil qilib, millat kelajagi uchun keng mushohadali fikrlarini jamlab maqolalar, asarlar bitdi.

Darhaqiqat, jadid bobomiz yangi davr maktabini ochishning tashabbuskori bo'ldi va qator darsliklar yozdi. Qalbida ma'rifat va vatanparvarlik ziyosi porlab turgan Mahmudxo'ja Behbudiy yosh avlodni istiqolga tayyorladi, she'r va maqolalar, sahna asarlari orqali ular ongiga milliy g'urur va iftixor tuyg'ularini singdirishga sa'y-harakat ko'rsatdi.

Shu ma'noda allomaning "Yoshlarga murojaat" nomli maqolasi e'tiborga molikdir. Ushbu murojaatning mazmun-mohiyatiga razm solinsa, avvalo, yoshlarni manfaatli ilm olishga, foydali kasb-hunar o'rganishga chorlovni ko'rish mumkin. Bunda jadid bobomiz, agarki yoshlar zamon talabidagi ilmlarga va kerakli kasb-korga ega bo'lishsa, birovlarining qo'liga qaram bo'lmisliklarini aytadi. Muhimi, Behbudiy bunday dunyoviy ilmlarga ega bo'lishga Islom dini ham qarshi

emasligini yetarlicha dalillar bilan isbotlaydi. Hatto bunday manfaatli ilm va kasb-hunarga ega bo'lish orqali pul topish din va millatga ko'proq foyda keltirishini urg'ulaydi.

Shu o'rinda Mahmudxo'ja Behbudiyning "Amolimiz yoyinki murodimiz" nomli maqolasida ko'tarilgan masalaga e'tibor qarataylik. U yozadi: "Agarda to'y va ma'rakaga qadimgidek oqcha to'kmasak, ul oqchani na qilmoq kerak? Munga javob berilurki, to'y va ma'raka qilinsun. Ammo hozirgidek isrof etmasdan qilinsun. Va mumkin qadarincha kichik qilinsun. Va ortuqcha pul ila bolalarni musulmon va rusi yaxshi o'qitulsun. To'y-u ma'rakaga sarf qilinaturg'on oqchani eski madrasa va mozoru masjid hamda maktablarni shikast-rextlarig'a sarf qilinsun. To'y va ma'raka oqchasidan bolalarni hukumat maktablari'ga berilsun va bu oqchadan talabalarni Makka, Madina, Misr, Istanbul va Rusiya dorilfunun va dorulsanoatlarig'a yuborilib, diniy va dunyoviy va zamonaviy odamlar yetishdurmog'g'a sa'y qilinsun. Bizni Turkistonda muallim ozdurki, to'y-u ma'raka



kag'a sarf qilinaturg'on oqcha ila Kafkaz, Qirim, O'runburg va Qozong'a usuli ta'lim o'rganmoq uchun bola yubormoq kerakdur. Hukumat maktablari'ga kirmoq uchun ruscha bilmoq va imtihon bermoq lozim. Va bu imtihonni bermoq uchun har bolani ikki sana ruscha o'qutub, tarbiyat etmoq kerak".

Mahmudxo'ja Behbudiy va boshqa jadid ajdodlarimizning boy ma'naviy merosini o'rganish, ularning puma'no va ezuu g'oyalari jamiyatimizda amalga oshirilayotgan yangilanishlarga og'ishmay tatbiq etishimiz, men va men singari tengqurlarimizning umr mazmuni, yorug' maslagi bo'lib qolmog'i zarurdir.

Odina MAHMUDOVA,
O'zbekiston Xalqaro islom akademiyasi magistranti



TASHQI IQTISODIY FAOLIYAT MILLIY BANKI

*yurtdoshlarimizni nafosat va
go'zallik elchisi –*

NAVRO'ZI OLAM

*bilan muborakbod etadi. Ezgu
niyatlar bilan boshlagan
har bir ishingiz xayr-baraka
keltirsin!*

*Jamiki yaxshiliklarni o'zida
mujassam etgan Navro'zi olam
har bir oilaga farovonlik baxsh
etsin!*

*Mehr-muhabbat va yasharish
fasli bo'lmish bu ayyom
barchamizga muborak bo'lsin!*



Jadid

Muassislar:



**O'ZBEKISTON
YOZUVCHILAR UYUSHMASI**



**RESPUBLIKA MA'NAVIYAT
VA MA'RIFAT MARKAZI**



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
FANLAR AKADEMIYASI**



**MILLIY MASS-MEDIANI
QO'LLAB-QUVVATLASH
VA RIVOJLANTIRISH
JAMOAT FONDI**



**"SHAHIDLAR XOTIRASI"
JAMOAT FONDI**

Bosh muharrir:
Iqbol Mirzo

**Bosh muharrirning
birinchi o'rinbosari:**
Humoyun Akbarov

Navbatchi muharrir:
Gulchehra Umarova

Sahifalovchi:
Erkin Yodgorov
Nigora Tosheva

**Tahririyatga yuborilgan maqolalar
muallifga qaytarilmaydi va ular
yuzasidan izoh berilmaydi.**

Gazeta 2023-yil 26-dekabrda
O'zbekiston Respublikasi
Prezidenti Administratsiyasi
huzuridagi Axborot va ommaviy
kommunikatsiyalar agentligi
tomonidan
195115 raqam bilan ro'yxatga
olingan.

Kirill yozuvidagi adadi – 5908
Lotin yozuvidagi adadi – 11905
Buyurtma: G – 340.
Hajmi: 4 bosma taboq, A2.
Nashr ko'rsatkichi – 222.
Tashkilotlar uchun – 223.
1 2 3 4 5 6



Manzili:

Toshkent shahri,
Shayxontohur tumani,
Navoiy ko'chasi, 69-uy

Telefonlar:

Qabulxona: (71) 203-24-20
Devonxona: (97) 745-03-69
jadidgt@mail.ru (71) 203-24-17
Jadid_gazetasi@exat.uz

**"Sharq" nashriyot-matbaa
aksiyadorlik kompaniyasi
bosmaxonasi.**

Bosmaxona manzili:

Toshkent shahri,
Buyuk Turon ko'chasi, 41-uy.

Bosishga topshirish vaqti: 21:00
Bosishga topshirildi: 02:05
Sotuvda narxi erkin.

